جديد

Tilda, fikrda, ishda birlik!


Jadid

2026-yil 6-noyabr
№ 45 (149)
www.jadid.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

IZDOSHLIK



“Bugungi avlod oldida yangi vazifa turibdi – Vatanni dunyoning har jihatdan rivojlangan yetakchi davlatlari qatoriga olib chiqish! Ana shu maqsadga erishsakkina, ozodlik yo‘lida qurbon bo‘lgan bobolarning ruhlarini shod etgan bo‘lamiz”

(7-sahifada o‘qing).

YETTIKUNLIK

ICHKI VA TASHQI TASHABBUSLAR

O‘tib borayotgan haftada Prezident Shavkat Mirziyoyevning Buxoroga tashrifi viloyatni rivojlantirish bo‘yicha yangi tashabbuslarni muhokama qilishga qaratilgan bo‘lsa, Samarqandda shu kunlarda o‘tkazilayotgan SHHT+ ekspertlar muloqoti terrorizm va ekstremizmga qarshi hamkorlik masalalarini qamrab oldi. Bugun Ostonada bo‘ladigan sun’iy intellekt xavfsizligiga bag‘ishlangan Aqaba jarayoni tadbiri esa ushbu kun tartibini kengroq xalqaro muhokama bilan bog‘laydi.



JIN KO‘CHALARDAN MAGISTRAL YO‘LLARGA

Ustoz adib Asqad Muxtor “Buxoroning jin ko‘chalari” nomli qissasida bu qadimiy kent bilan bog‘liq ijtimoiy-madaniy manzarani chizarkan, o‘quvchi ko‘z oldida chang tumanday yoyilgan yuz yil avvalgi gavjum mahallalar, ma’rifatga intiq, ammo imkoni cho‘ltoq yoshlar juvonmard Fayzulla Xo‘jayev tegrasida namoyon bo‘ladi. Amirlik davr-u davroniga yarashiq xurofot va bid’at, tang-u torlik, mustamlaka kasofati yurak-bag‘irni ezadigan bu rostgo‘y asar bugun tarix sahifalarida “o‘tmishdan ertaklar” (Abdulla Qahhor) bo‘lib qoldi. Bugungi Buxoro Yangi O‘zbekiston islohotlaridan ko‘rklanib, kunbakun yuksalib, orolanib boryapti. Zamon tarozusi, voqealar ko‘lami mutlaqo o‘zga...

Yurtboshimizning Buxoro viloyatiga tashrifi va hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga bag‘ishlangan yig‘ilishi voha ahli uchun muhim voqea bo‘ldi. Unda viloyatning boy tarixi va tabiiy salohiyatini zamonaviy iqtisodiy o‘sish, aholi farovonligi va yangi ish o‘rinlari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan vazifalar belgilandi. Ichimlik suvi, kanalizatsiya va yo‘llar holatini yaxshilash, jamoat transportini rivojlantirish, yangi korxonalar va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini ochish aholi turmushiga bevosita ta’sir qiladi. Buxoro iqtisodiyotiga, odamlarning kundalik hayotiga ijobiy o‘zgarishlar olib kiradigan 30 milliard dollarlik yangi tashabbuslar e’lon qilindiki, bu kabi katta mablag‘ hech qachon viloyatga kiritilmagan. Shu nuqtayi nazardan, tashrif vohaning iqtisodiy salohiyatini aholi farovonligiga xizmat qiladigan aniq loyihalarga aylantirishga qaratildi. Sanoat, energetika va turizmdan tortib, ichimlik suvi hamda yo‘llargacha bo‘lgan vazifalarning birgalikda muhokama qilingani tashrifning muhim jihatidir.

Ma’lumotlarga ko‘ra, viloyatda umumiy qiymati 7,8 milliard dollar bo‘lgan 145 ta loyihadan iborat dastur shakllantirilgan. Ularning bir qismi ishga tushirilmoqda, boshqalarining qurilishiga start berilmoqda.

Loyihalar to‘liq amalga oshsa, yangi ish o‘rinlari, mahalliy ishlab chiqarish va eksport imkoniyatlari kengayishi kutilmoqda. Buxoroda neft-gaz, kimyo, to‘qimachilik va boshqa tarmoqlardagi loyihalar iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga xizmat qilishi mumkin. Xomashyoni chuqur qayta ishlash, import o‘rnini bosadigan va xorij bozorlarida talabgir mahsulotlar ishlab chiqarish viloyatda qo‘shilgan qiymatni oshiradi. “Yashil” energetika loyihalari ham bu jarayonning muhim qismi. Yangi shamol stansiyalari, energiya saqlash tizimlari va elektr tarmoqlari sanoatning ishonchli energiya ta’minotini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Bunda yangi quvvatlarni qurish bilan birga, ularni tarmoqqa samarali ulash va mahalliy mutaxassislarni tayyorlash ham zarur.

(Davomi 2-sahifada).

VATAN MANZUMASI



Sharof RASHIDOV

O‘LKAM

Yurakda ishonch uyg‘otgan
Vatan – bog‘im, huzurimdir.
Hayotimni bol qilib bergan,
Ki, baxt tog‘im, g‘ururimdir.
G‘ururimsan, aziz o‘lkam,
Sen ilhomim, sururimsan.
Yuzimga sen ziyo berding,
Ko‘zimda chaqnagan nurimsan.
Bo‘lur ko‘z-ko‘z jahonlarga,
Sharaf-shonim va dong‘imsan!

Hayot berding va ong berding,
Ki, baxtimsan, chiroyimsan.
Yozar yaproq ulug‘ orzu.
Kular iqboli oyimsan.
Bo‘lur mo‘l noz-u ne’matlar,
Oqar chashma-yu soyimsan.
Quyosh, Oyga husn bergan
Bahor, gul chiroyimsan,
Olov ilhom-u ongimsan!

Chaman o‘lkam, quyosh o‘lkam,
Bahor bo‘lib o‘tar yillar.
Bog‘-u bo‘ston, tog‘i ko‘rkam,
O‘sar rayhon-u jambillar.
Hayotning bunda zavqi bor,
Farog‘atda yashar ellar.
Turmushning zavq-lazzatini
Kuylagay, armoni yo‘q dillar.
Ilhom topar dilda, o‘lkam,
Sen qo‘shig‘-u oq tongimsan!

ZAFAR



XIRMONGACHA YO‘L

Yangi O‘zbekiston tarixida ilk bor 5 million tonnadan ziyod yuksak paxta xirmoni bunyod etildi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shu munosabat bilan O‘zbekiston dehqon va fermerlari hamda barcha qishloq xo‘jaligi xodimlariga tabrik yo‘lladi. Jumladan, tabrikda: “Biz keyingi yillarda tarmoqni o‘ta og‘ir ahvoldan olib chiqish uchun avvalo chigit ekiladigan maydonlarni 38 foizga qisqartirib, paxta monopoliyasiga barham berdik. Sohani ilm-fan yutuqlari, zamonaviy agrotexnologiyalar asosida rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratdik”, deya ta’kidlanadi.

Darhaqiqat, bugun Yangi O‘zbekiston paxtachiligi yangi bosqichga kirmoqda. Qishloq xo‘jaligida, jumladan, paxtachilikda ham bozor tamoyillari, fermer va klasterlarni qo‘llab-quvvatlash, yangi navlar, yuqori hosilli texnologiyalar, urug‘chilikni yaxshilash, suv tejash, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, texnika va ilm-fanga asoslangan boshqaruv tizimlari izchil joriy etilmoqda.

SAVOL KELTIRIB CHIQARGAN NATIJA

So‘nggi oltmish yil ichida dunyo bo‘ylab paxta hosildorligi sezilarli darajada oshdi. Bugungi kunda yetakchi mamlakatlar nihoyatda yuqori natijalarga erishmoqda: Xitoy gektaridan taxminan o‘rtacha 90 sentnergacha paxta xomashyosini yetishtirish bilan dunyoda birinchi o‘ringa chiqib olgan bo‘lsa, Avstraliya 55 sentnergacha, Turkiya esa taxminan 50 sentner o‘rtacha ko‘rsatkichga ega. Braziliyada hosildorlik o‘rtacha 40-45, AQSH, Pokiston va Hindistonda esa bu raqam sharoitga qarab 15-25 sentnergacha. Dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 30-35 sentner orasida.

Shu fonda O‘zbekistonning paxtachilik tarixi alohida e’tiborga molik. Uzoq yillar davomida mamlakatimizda paxta xomashyosi hosildorligi gektariga o‘rtacha 25-30 sentner atrofida qolib keldi, ba’zi yillarda esa shunga ham yetib bo‘lmadi. Asrlar davomida paxta ekib kelgan, Farg‘ona va Zarafshon vodiylarida serunum sug‘oriladigan yerlarga ega, dunyodagi eng katta paxta maydonlaridan birini o‘z ichiga olgan mamlakat uchun bunday quyi ko‘rsatkich o‘ta ajablanarli holat edi. O‘tgan yili esa dalalardan 70-90 sentnergacha paxta xomashyosi ko‘tarilib, yurtimizda o‘rtacha hosildorlik 45 sentnerga yetdi. Bu salmoqli qadam bo‘ldi.

(Davomi 4-sahifada).

FAKT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Navoiyuran” korxonasi va “O‘zbekiston texnologik metallar kombinati” aksiyadorlik jamiyatining ustuvor vazifalari hamda kelgusi rejalari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Masqat shahrida “O‘zbekiston – O‘mon: madaniy aloqalar. Movarounnahr – asrlar osha taralgan islom sivilizatsiyasi ziyosi” mavzusida xalqaro simpozium bo‘lib o‘tdi.

BAAning Al-Ayn shahrida 20 yoshgacha bo‘lgan shaxmatchilar o‘rtasida o‘tayotgan jahon chempionatining rapid bahslari yakunida Humoyun Bekmuratov g‘olib bo‘ldi.

O‘zbekistonda GESlar soni 106 taga yetkazilib, umumiy o‘rnatilgan quvvat 2,5 GVtni tashkil etdi.

ADABIY DO‘STLIK – ABADIY DO‘STLIK

BIRLASHGAN EL O‘ZAYOTIR

To‘ylar muborak, to‘rog‘a!



Yangi zamonda yurtimiz va mintaqamizda o‘tkazilayotgan xalqaro tadbirlar xalqlar do‘stligini rivojlantirmoqda, o‘zaro madaniy-ijtimoiy hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Anqarada Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlar Prezidentlari ishtirokida tashkilotning navbatdagi anjumani bo‘lib o‘tdi. Xuddi shu kunlari qadimiy va muazzam Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlarida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va O‘zbekiston Sanoat-qurilish banki hamkorligida Xalqaro adabiyot va kitobxonlik festivali o‘tkazildi.

(Davomi 3-sahifada).

IFTIXOR

ASRIY MADANIYATLAR CHORRAHASI

Buyuk shaharlar ham xuddi buyuk insonlar kabi tug‘iladi, ulg‘ayadi, sinovlardan o‘tadi. Vaqt o‘tishi bilan o‘zini bino qilgan millatning chegarasidan chiqib, butun bashariyatning ma’naviy boyligiga aylanadi. Bunday shaharlar Yer yuzida sanoqli bo‘lgani uchun ularning har biri haqida aytiladigan so‘z taroziga solinib, adolat mezoni bilan o‘lchanishi lozim. Samarqand ayni shunday shaharlar sirasiga kiradi.

Zero, u qariyb uch ming yil davomida o‘z bag‘rida turli xalqlarni, dinlarni, tillar va ilm maktablarini jamlab, ularni yagona tamaddun o‘zaniga birlashtirgan va bugun insoniyat tafakkurining tajalliysi sifatida jahonning madaniy merosidan munosib o‘rin olgan.

Samarqandning ilk qo‘rg‘oni bo‘lgan Afrosiyob shaharchasining eng quyi madaniy qatlamlari miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga oid ekani arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlangan.

(Davomi 5-sahifada).

ICHKI VA TASHQI TASHABBUSLAR

Boshlanishi 1-sahifada.

Buxoro turizmi – viloyatning eng katta imkoniyatlaridan biri.

Eski shahar, Yetti pir, Chor Bakr, Poykent, Varaxsha va Vardonze kabi tarixiy maskanlarni yagona yo‘nalishga birlashtirish sayyohlar tashrifini oshirishi mumkin. Turizm markazi, kongress-xoll va xalqaro mehmonxona brendlari bilan bog‘liq loyihalar ham sohaning imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq turistlar sonining ortishi o‘z-o‘zidan iqtisodiy samara bermaydi. Sayyohlarning viloyatda uzoqroq qolishi uchun sifatli mehmonxona, umumiy ovqatlanish, transport, gidlik xizmati va tumanlardagi qiziqarli marshrutlar zarur. Shuningdek, yangi obyektlar Buxoroning tarixiy qiyofasi va iqlimiga mos bo‘lishi, mahalliy aholi va hunarmandlar ham turizmdan daromad olishi kerak. Prezidentimiz masalaning ana shu nozik jihatlariga ham e’tiborni qaratgani xalqning orzu-umidlariga hamohang.

Viloyat iqtisodiyoti o‘sib borayotgani quvonarli. Biroq uning tabiiy resurslar sanoati va qishloq xo‘jaligiga yuqori darajada bog‘liqligi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Sanoat, xizmatlar va qishloq xo‘jaligidagi imkoniyatlarni oshirish uchun xomashyoni chuqur qayta ishlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va har bir tumanning o‘ziga xos o‘sish nuqtalarini aniqlash kerak. Neft-gaz va kimyo sanoati, to‘qimachilik, shamol energetikasi va energiya saqlash tizimlariga oid loyihalar yangi ish o‘rinlari va eksport uchun imkoniyat yaratadi. Eng muhimi, endi yirik korxonalar atrofida mahalliy yetkazib beruvchilar va kichik biznes ham rivojlanadi. Shunda investitsiyaning manfaati faqat katta loyihalarda emas, mahalliy tadbirkorlar va aholi daromadida ham ko‘rinadi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, islohotlarning barqaror natijasi malakali kadrlarga bog‘liq. Texnikumlarni tadbirkorlar bilan bog‘lash, dual ta’limni kengaytirish va maktab bitiruvchilarini kasbiy ta’limga jalb qilish yoshlarni viloyatdagi yangi ish o‘rinlariga tayyorlaydi.Ta’lim mazmuni ish beruvchilar ehtiyojiga mos bo‘lsa, bitiruvchilarning ish topish imkoniyati ortadi.

Tibbiyot muassasalarini yangilash bilan birga birlamchi bo‘g‘indagi xizmatlar sifatini



oshirish muhim. Investitsiya, xususiy tashabbus va xorijda tajriba orttirgan mutaxassislar imkoniyatidan foydalanish aholiga ko‘rsatiladigan tibbiy yordamni yaxshilashi mumkin. Bunda xizmatlarning sifatli, shaffof va aholi uchun imkoni bor darajada qulay bo‘lishi asosiy mezon bo‘lishi kerak.

Buxoro uchun e’lon qilingan tashabbuslar katta salohiyatga ega. Ammo ularning haqiqiy bahosi ajratilgan mablag‘lar va loyihalar soni bilan emas, natijalar bilan o‘lchanadi. Xonadonlarga suv yetib bordimi, yo‘llar yaxshilandimi, ish o‘rinlari yaratildimi, tadbirkorlar bozor topdimi va sayyohlar viloyatda uzoqroq qoldimi? Yurtboshimizning taklif va tashabbuslari, belgilab bergan vazifalari ana shu savollarga yechim bo‘ladi.

YANGI HAMKORLIK MAYDONI

Xavfsizlik masalalari bo‘yicha SHHT+ birinchi ekspertlar muloqoti “Raqamli transformatsiya davrida xavfsizlik: yangi texnologiyalar rivojlanishini hisobga olgan holda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish” mavzusiga bag‘ishlandi. Tadbir O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan. G‘oya ilk bor 2024-yilda SHHTning Ostona sammitida o‘rtaga tashlangan bo‘lsa, 2025-yilda Tyanszinda bo‘lib o‘tgan sammitda birinchi muloqotni Samarqandda tashkil etish taklif qilingan edi.

Anjumanda dunyoning 24 davlatidan 33 ta delegatsiya va beshta xalqaro tashkilot vakillari qatnashayotgani uning nufuzini yanada oshirdi. Ishtirokchilar sun’iy intellekt va boshqa ilg‘or texnologiyalarning xavfsizlikka ta’siri, shuningdek, terrorizm va ekstremizmga qarshi hamkorlik yo‘nalishlarini muhokama qilishyapti.

Muhokamaning dolzarbligi shundaki, raqamli muhit xavfsizlik idoralari uchun yangi imkoniyatlar bilan birga murakkab vazifalarni ham yuzaga keltirmoqda. Texnologiyalardan zararli maqsadlarda foydalanishning oldini olish bilan bir qatorda, qonuniylik, inson huquqlari va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish tamoyillariga amal qilish bugungi kunning talabiga aylangan.

SHHT+ formati tashkilotga a’zo davlatlar bilan bir qatorda kuzatuvchilar, muloqot bo‘yicha hamkorlar va xalqaro tashkilotlar vakillarini jalb etish imkonini beradi. Shu bois uchrashuv mintaqaviy tajribalarni solishtirish va umumiy muammolar bo‘yicha ishchi muloqotni kengaytirishga xizmat qilishi mumkin. Samarqandda bunday muloqotni o‘tkazish O‘zbekistonning xalqaro xavfsizlik masalalarida tashabbuskor va muloqotni tashkil eta oladigan sherik sifatidagi o‘rnini ham mustahkamlaydi. Mamlakatimiz uchun bu xavfsizlik idoralari va xalqaro hamkorlar o‘rtasida ishonchli aloqalarni kengaytirishga, raqamli tahdidlar va sun’iy intellektdan mas’uliyatli foydalanish bo‘yicha tajriba almashishga, mutaxassislar tayyorlash va idoralararo hamkorlikni rivojlantirishga, Markaziy Osiyo xavfsizligiga oid qarash va ustuvorliklarni xalqaro maydonda bayon etishga ko‘maklashadi.

Afg‘onistondagi vaziyat va mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olganda, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari uchun bunday muloqot alohida ahamiyatga ega. Biroq ekspertlar uchrashuvining o‘zi xavflarni bartaraf etmaydi. Uning natijasi keyingi amaliy ishlarga bog‘liq.

Xususan, muntazam axborot almashish, qo‘shma o‘quv dasturlari, mutaxassislar malakasini oshirish va huquqiy kafolatlarga amal qilish shular jumlasidan. Uchrashuvning eng katta natijasi ishtirokchilarning aniq ustuvor vazifalarni belgilab, ularni bajarish bo‘yicha ishchi mexanizmlarini kelishib olgani bo‘ldi. Asosiysi, Samarqand muloqoti SHHT doirasida xavfsizlik kun tartibini raqamli davr talablariga moslashtirish imkonini beradi.

MINTAQA KUN TARTIBIDA SUN’IY INTELLEKT

Prezidentimizning 5-6-noyabr kunlari Qozog‘iston poytaxti Ostonada bo‘lib o‘tadigan Aqaba jarayoni uchrashuvida ishtirok etishi Markaziy Osiyo uchun dolzarb mavzulardan biri – sun’iy intellekt va yangi texnologiyalarning xavfsizlikka ta’sirini mintaqaviy darajada muhokama qilish imkonini beradi. Sun’iy intellekt iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, ta’lim va ilmiy tadqiqotlarga katta imkoniyatlar ochayotgan



bir paytda, dezinformatsiya, kiberxavflar va zo‘ravon ekstremistik guruhlarning raqamli vositalardan foydalanishi kabi yangi xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda. Shu bois davlatlar texnologiyadan foydalanishni rivojlantirish bilan birga, uning xavflarini birgalikda baholashga ham ehtiyoj sezmoqda.

Davlatimiz rahbarining mazkur xalqaro tadbirda ishtirok etishi O‘zbekistonning sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohasidagi xalqaro muloqotlarda faollikka intilayotganini namoyon etadi.

Bugun sun’iy intellekt sohasidagi raqobat nafaqat ilg‘or texnologiyalarni yaratish, balki ularni xavfsiz boshqarish, milliy manfaatlarni himoya qilish va inson huquqlarini ta’minlash bilan ham chambarchas bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro tajriba almashish va umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish O‘zbekiston uchun ham muhimdir.

Ostonadagi uchrashuvning ahamiyati shundaki, ilk bor Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari darajasida sun’iy intellekt xavfsizligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mintaqa davlatlari umumiy geografik muhit, o‘zaro bog‘liq axborot makoni va chegaralararo xavflarga duch kelishi ehtimolidan xoli emas. Shu sababli har bir davlatning yakka choralari yetarli bo‘lmasligi mumkin.

Muloqotda umumiy xavflarni baholash, xavfsizlik idoralari o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish va mutaxassislar tajribasini almashish imkoniyatlari muhokama qilinyapti. Bunday hamkorlik natijali bo‘lishi uchun uning vazifalari aniq belgilanishi, ma’lumotlar bilan ishlash tartibi va fuqarolar huquqlarini himoya qilish choralari ham kelishib olinishi ko‘zda tutiladi.

Iqbol MIRZO

ZAMONGA BOQ...

IMKONIYATMI, TAHDID?



Amirjon MARDONOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbarining Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish bo‘yicha maslahatchisi

Bugun sun’iy intellekt imkoniyatlari kengaygani sari jamiyatimiz axborot muhitida yangi tahdidlar ham yuzaga kelmoqda. Soxta xabarlar, dipfeyk video va ovozlar, manipulyativ axborot oqimlari insonlarni chalg‘itishi, jamoatchilik ishonchiga va yoshlarning dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday sharoitda milliy qadriyatlarimiz va tarixiy haqiqatni asrash, axborotga tanqidiy yondashishni shakllantirish hamda xavf-xatarlarni o‘z vaqtida anglash ma’naviy-ma’rifiy faoliyatning muhim vazifasiga aylanmoqda. Shu bois, biz sun’iy intellektdan faqat ishni yengillashtirish uchun emas, balki jamiyatdagi axborot jarayonlarini chuqurroq tahlil qilish va samarali ma’rifiy yechimlar ishlab chiqish uchun ham foydalanishga intilmoqdamiz.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni ish jarayonlarini tahlil qilish va xodimlarning amaliy ehtiyojlarini aniqlashdan boshladik. Asosiy maqsad – insonni texnologiya bilan almashtirish emas, balki takroriy vazifalarni yengillashtirish, axborot bilan ishlash tezligini oshirish hamda mutaxassislarga tahlil, ijod va jamoatchilik bilan muloqot uchun ko‘proq imkoniyat yaratish edi. Shu asosda xodimlarni o‘qitish, sun’iy intellektdan kundalik ishda foydalanish, ochiq axborot maydonini tahlil qilish va ma’rifiy kontentning yangi shakllarini ishlab chiqish bo‘yicha ishlar boshlandi.

DASTLABKI AMALIY NATIJALAR

Markaz xodimlari uchun tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlarda sun’iy intellektga to‘g‘ri so‘rov berish, hujjat va ma’ruzalarning dastlabki loyihalarini tayyorlash, katta matndan asosiy fikrni ajratish, manbalarni solishtirish va ma’lumotlarni tizimlashtirish ko‘nikmalariga ustuvor ahamiyat berilmoqda. O‘quvlar



faqat texnologiyani tanishtirish bilan cheklanmaydi: xodimlar natijani mustaqil tekshirish, shaxsga doir va xizmat ma’lumotlarini himoya qilish, ochiq platformalarga maxfiy axborotni kiritmaslik talablarini ham o‘rganmoqda. Keyingi bosqichda mazkur tajribani hududiy tuzilmalarga bosqichma-bosqich tatbiq etish ko‘zda tutilgan.

Ayrim kundalik vazifalarda sun’iy intellektdan yordamchi vosita sifatida foydalanish sinovdan o‘tkazilmoqda. Jumladan, tahliliy ma’lumotning dastlabki tuzilmasini tayyorlash, ko‘p sahifali materiallarni qisqacha umumlashtirish, tadbirlar uchun g‘oya va ssenariylar ishlab chiqish hamda axborot mavzularini guruhlash kabi jarayonlarda uning imkoniyatlari o‘rganilmoqda. Biroq sun’iy intellekt tayyorlagan matn yakuniy qaror yoki tayyor mahsulot hisoblanmaydi: faktlar, uslub va mazmun mutaxassis tomonidan, albatta, qayta ko‘rib chiqiladi.

ASOSIY TAMOYIL ANIQ

Faoliyatimizning muhim yo‘nalishlaridan biri – ijtimoiy tarmoqlar va boshqa ochiq manbalardagi axborot oqimini tahlil qilishga mo‘ljallangan platforma ustidagi ishlardir. Unda dolzarb mavzularni aniqlash, axborot faolligining keskin o‘zgarishini kuzatish, yolg‘on va manipulyativ xabarlar tarqalishining ehtimoliy belgilarini ekspertlarga o‘z vaqtida ko‘rsatish nazarda tutilmoqda. Texnik yechim bilan bir qatorda, oddiy jamoatchilik muhokamasini zararli axborot ta’siridan ajratishga yordam beradigan tahlil metodologiyasi ham shakllantirilmoqda.

Maqsad alohida fuqarolarning shaxsiy qarashlarini kuzatish emas, balki ochiq axborot maydonidagi umumiy tendensiyalarni anglash va ularga o‘z vaqtida ma’rifiy javob tayyorlashdir. Algoritm ehtimoliy signalni ko‘rsatishi mumkin, biroq vaziyatni kontekstda baholash va xulosa chiqarish mas’uliyati inson zimmasida qoladi. Shu yondashuv hududlardagi ijtimoiy-ma’naviy holatni ma’lumotlar asosida tahlil qilish va xaritalash ishlari uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi.

MILLIY MEROSNING YANGICHA TAQDIMOTI

Yana bir amaliy yo‘nalish – buyuk ajdodlarimiz va tarixiy shaxslarning sun’iy intellekt asosidagi raqamli obrazlarini yaratish, ular ishtirokida ma’rifiy videoroliklar tayyorlash bilan bog‘liq. Bu usul tarixiy asarlar, arxiv materiallari va allomalar merosini yoshlarga tushunarli, qisqa hamda ta’sirchan formatda yetkazish imkonini beradi. Ammo jozibali tasvir tarixiy haqiqatning o‘rnini bosa olmaydi. Shuning uchun manbalar va iqtiboslarni tekshirish, tarixiy shaxs nomidan aytilmagan fikrni unga nisbat bermaslik hamda raqamli obraz sun’iy yaratilganini ochiq ko‘rsatish muhim mezon hisoblanadi.

Milliy tilning raqamli muhitdagi o‘rni ham bu faoliyatning ajralmas qismidir. Davlatimiz rahbari 2025-yil 21-oktyabrda sun’iy intellekt dasturlari samarali ishlashi uchun ular o‘zbek tilini puxta tushunishi zarurligini ta’kidladi. O‘zbek tilidagi ko‘plab adabiyotlar, ilmiy ishlar va boshqa materiallar hali to‘liq raqamlashtirilmagani qayd etilib, Raqamli texnologiyalar vazirligiga “O‘zbek tili korpusi”ni yaratish vazifasi qo‘yildi. Shuningdek, 2026-yil yakuniga qadar katta hajmdagi raqamli ma’lumotlarni jamlash va qayta ishlashga mo‘ljallangan “Data Lake” platformasini ishga tushirish topshirildi.

Bu tashabbus ma’naviy-ma’rifiy soha uchun ham muhim. Chunki o‘zbek tilidagi ishonchli matnlar, ilmiy va tarixiy manbalarning raqamli shaklda ko‘payishi sun’iy intellekt vositalarida milliy madaniyat, qadriyat va tarixiy merosning to‘g‘ri aks etishiga zamin yaratadi. Markazda tayyorlanayotgan ma’rifiy materiallar, raqamli avatarlar va tahliliy vositalar uchun ham to‘g‘ri til, aniq atama va tekshirilgan manba hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biz uchun texnologiyaning o‘zbek tilida ishlashi yetarli emas – u milliy ma’no va tarixiy kontekstni ham ehtiyotkorlik bilan yetkazishi lozim.

TEXNOLOGIYA VA MAS’ULIYAT

Hozirgi davrda sun’iy intellekt imkoniyatlari bilan birga, soxta xabarlar, dipfeyk video va ovozlar, shaxsiy ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi kabi xavflar ham kuchayib borayotganiga guvohmiz. Shu bois, ma’naviy immunitetni mustahkamlash bugun media savodxonlik va sun’iy intellekt savodxonligini ham talab etadi: axborot manbaini tekshirish, sun’iy yaratilgan tasvirni tanish va muhim qarorda texnologiya xulosasiga ko‘r-ko‘rona ergashmaslik zarur. Markaz faoliyatida ham ma’lumotlar maxfiyligi, faktlarning ishonchliligi, inson nazorati va tarixiy haqiqatni saqlash tamoyillari ustuvor bo‘lib qolmoqda.

Bugun biz sun’iy intellektni alohida tajriba emas, balki ma’naviy-ma’rifiy ish uslubini bosqichma-bosqich yangilaydigan vosita sifatida ko‘rmoqdamiz. Xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, axborot jarayonlarini erta anglash va ajdodlar merosini yoshlarga zamonaviy usullarda yetkazishga qaratilgan ishlarimiz yagona maqsadga – texnologiya taraqqiyotini inson tafakkuri, milliy qadriyatlar va jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

BIRLASHGAN EL O‘ZAYOTIR

Boshlanishi 1-sahifada.

AQSH, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Qozog‘iston mamlakatlaridan Yozuvchilar uyushmalarining raislari, taniqli adib va shoirlar, tarjimonlar, noshir va muharrirlar jam bo‘lishdi. Festival doirasida adabiy-badiiy hamda ilmiy nashrlar ko‘rgazmasi, ijodiy suhbatlar, mushoiralar, mahorat saboqlari tashkil etildi, istiqboldagi rejalar maslahatlashib olindi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston va Qozog‘istonda ikki jondosh elning adabiyot va madaniyatini keng targ‘ib etishga yuksak e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, muhtaram Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan o‘zbek tilida nashr etilgan “Turkiy adabiyot durdonalari” nomli 100 jildlik muhtasham majmuaning 72-81-jildlari qozoq adabiyoti namunalariga bag‘ishlangan. Bu kitoblarda Shokarim Xudoyberdiyev, Ahmad Boytursunov, Mirjaqip Dulatov, Jusupbek Aymauitov, Mag‘jon Jumaboyev, Muxtor Avezov, Sobit Muqonov, G‘abit Musrepov, Abish Kekilboyev, Anvar Olimjonov, O‘ljas Sulaymonov, Jo‘bon Mo‘ldag‘aliyev, Muqag‘ali Maqatoyev, Tumanboy Mo‘ldag‘aliyev, Muxtor Shoxonov asarlari jamlangan. “Qozoq zamonaviy she’riyati antologiyasi”, “Qozoq zamonaviy nasri antologiyasi” deb nomlangan jildlarda esa qozoq adabiyotining she’riy va nasriy janrlardagi boyligi va bugungi yutuqlari to‘liq namoyon bo‘lgan, desak, mubolag‘a emas.

Qozoq adabiyotining ulug‘ namoyandasi, shoir va mutafakkir Abay Ibrohim o‘g‘li Qo‘nonboyev tavallud topgan 10-avgust sanasini adabiyot bayrami sifatida keng nishonlash O‘zbekistonda ezgu an’anaga aylangan.

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti, Qosim-Jomart Toqayev rahbarligida O‘zbekiston bilan barcha sohalar, jumladan, madaniy-gumanitar yo‘nalishda hamkorlik aloqalari kuchayib bormoqda. Bu haqda gapirganda Ostona shahrida buyuk ajdodimiz, so‘z mulkining sultoni Alisher Navoiyga bag‘ishlab muazzam haykal o‘rnatilganini aytish lozim.

Ayni paytda mumtoz va zamonaviy o‘zbek adiblarining kitoblari qozoq tilida muntazam nashr etib kelinmoqda. Qozog‘istonda o‘zbek madaniyati va adabiyoti kunlari o‘tkazilmoqda. Yangi pyesalar katta-katta sahnalarda namoyish etilmoqda. Bugun o‘zbek shoirlari va yozuvchilari Ostona, Olmaota, Turkiston va boshqa shaharlarda o‘tkazilayotgan adabiy forumlar, kitob taqdimotlari, qozoq bovurlarimizning tavallud sanalariga bag‘ishlangan tadbirlarda faol ishtirok etmoqda. O‘z navbatida qozog‘istonlik tug‘ishganlarimiz ham O‘zbekistondagi bayram va shodiyonalarni qadrdon og‘aynilari bilan baham ko‘rib kelayotir. Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlanishi esa o‘zbek adabiyotiga ko‘rsatilgan yuksak ehtiromning yorqin namunasidir.

Ikki xalq o‘rtasidagi ijodiy do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga Qozog‘iston Yozuvchilar uyushmasi raisi, hurmatli oqsoqolimiz Mereke Kulkenov ham munosib hissa qo‘shib kelmoqda.



Atoqli adib, jurnalist va jamoat arbobi Mereke Abdesh o‘g‘li Kulkenov 1951-yil 8-noyabrda Qozog‘iston Respublikasining Atirov viloyati, Qizilqo‘g‘a tumani, Qorabov ovulida tug‘ilgan. Mehnat faoliyatini 1971-yili Qozog‘iston Markaziy bosmaxonasida ijodiy xodimlikdan boshlagan. “Qozog‘iston pioneri”, “Qozoq adabiyoti” gazetalari, respublika teleradiokompaniyasi, “Kashshof”, “Yolin”, “Ona tili”, “Tong-Cho‘lpon” jurnallarida muxbirlikdan bosh muharrirlikkacha bo‘lgan mas’uliyatli va sharafli yo‘lni bosib o‘tgan. Ko‘p yillar davomida “O‘lka” nashriyotining bosh direktori vazifasida mehnat qilgan. Tashkilotchi va tashabbuskor rahbar, iste’dodli ijodkor sifatida nashriyot moddiy-texnik bazasini mustahkamladi, jahon andozalariga mos zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy qildi. Kitoblarning nashr sifatini yuksaltirdi, mumtoz va zamonaviy adabiyot namunalarini tizimli tarzda bosmadan chiqarishni yo‘lga qo‘ydi. Jamoatchilikning e’tibor va e’tirofini qozongan “Maxambet kutubxonasi” turkumidagi 20 jildlik asarlar majmuasi hamda “Maxambet eli” kitob-albomi, shuningdek, “Jir marjoni” nomli o‘n jildlik qozoq she’riyati antologiyasi ushbu nashriyotda chop etilgan.

Mereke Kulkenovning o‘lka tarixini o‘rganish va tadqiq etish bo‘yicha amalga oshirgan ijodiy ishlarini ham alohida ta’kidlash zarur. Uning muharrirligida general-leytenant N.A.Terentyevning “История завоевания Средней Азии” (“O‘rta Osiyoning bosib olinishi”) nomli uch jildlik kitobi, “Asr nigohi” nomli kitob-albomi o‘quvchilar e’tiboriga havola etildi. Ayniqsa, “O‘lka” nashriyotida chop etilgan “Qyltegin – Tonikek” (“Kultegin – To‘nyuquq”) kitobi ijtimoiy-ma’naviy hayotda muhim voqea bo‘ldi.

Mereke Kulkenov kitobxonlar manfaati va millat kelajagi uchun xizmat qilgan tajribali noshir, faol va tashabbuskor rahbar bo‘lish bilan birga, iste’dodli adib sifatida nafaqat qozoq xalqi, balki Markaziy Osiyo kitobxonlarining ham e’tiborini qozongan. Yozuvchining “Jibek jel”, (“Ipak shamol”), “Taңg‘i salqin” (“Tong sabosi”), “Ұrey” (“Qo‘rquv”), “Xalel Dosmұxamedovtiң өmiri men qizmeti” (“Xalil Do‘stmuhammedov hayoti va faoliyati”), “Qazaqstan” (“Qozog‘iston”) nomli nasriy va badiiy-publitsistik to‘plamlari, “Maxabbat mұnarasi” (“Muhabbat minorasi”), “Jөңgir xan” (“Jangirxon”) pyesalari zamonaviy qozoq adabiyotining ma’naviy mulkiga aylangan. Rahimjon O‘tarboyev bilan hammualliflikda yozilgan “Bosh” nomli dramasi Qozog‘iston Madaniyat vazirligining “Boyterak” tanlovida g‘olib bo‘lib, mamlakat teatrlarida sahnalashtirilgan. Shu bilan birga, u “Sheshendik өner” (“Notiqlik san’ati”) kitobining mualliflaridan biridir. Qator asarlari xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Keyingi yillarda Mereke og‘amizning bevosita tashabbusi bilan Qozog‘istonda “Turkiy olam adabiyoti” loyihasi yo‘lga qo‘yilib, hozirga qadar Anor Rzayev, Sulton Rayev, Arslon Qo‘ychiyev, Xayriddin Sulton, Erkin A’zam, Nazar Eshonqul, Abduqayum Yo‘ldoshev kabi yozuvchilarning eng yaxshi asarlari qozoq tiliga tarjima qilinib, nashr etildi hamda mamlakat maktablarining kutubxonalariga yetkazib berildi.

Mereke Kulkenov qizg‘in, ibratli ijodiy va ijtimoiy faoliyati uchun Qozog‘iston hukumati tomonidan munosib e’tirof etilgan. “Qozog‘istonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” (1998) faxriy unvoni, “Hurmat” (2004), “Parasat” (2019), I darajali “Bars” (2021) ordenlari, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti mukofoti (2002), shuningdek, “Oltin qalam” (2018), “Yilning eng yaxshi noshiri” (2018) mukofotlari bilan taqdirlangan.

Mereke Kulkenovning “Shodlik” nomli qissa va hikoyalar to‘plami yaqinda Umroy Karimova tarjimasida o‘zbek tilida nashr etildi va adabiy jamoatchilik nazariga tushdi. Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirlar doirasida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida ushbu kitob taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

“Shodlik” qissasi – falsafiy-psixologik asar. Yozuvchi voqealar bayoniga emas, besh-olti yashar qahramonning ruhiy holati, ichki dunyosi va kattalar olamini bola qalbi bilan o‘zicha tahlil etishi, iztiroblarining badiiy tasviriga asosiy e’tiborini qaratgan. Muallif go‘yoki bola bo‘lib, bola nigohini bola tilidan hikoya qiladi. Shuning uchun ham qissa nihoyatda ta’sirchan chiqqan. Mereke Kulkenovning badiiy mahorati shundaki, bir kam dunyoning anglab bo‘lmaydigan ishlari va tashvishlaridan inson qalbining naqadar yaralanishi, globallashuv, ma’naviy tanazzullarga qarshi milliy qadriyatlarning mustahkam qo‘rg‘oni, ruhiy kuch-qudrati yengilmas qalqon bo‘lishini yorqin tasvirlar orqali kitobxonlar ongiga singdiradi. Ayniqsa, kitobga kiritilgan qissa va hikoya qahramonlari nomining metaforaga aylanganini zukko o‘quvchi darhol anglaydi va his etadi. Shodlik, Gulbarchin, Murod, Samad, Maqsad...

“Shodlik” qissasi syujeti Shodlikning otaonasi janjallashishi voqeasidan boshlanadi. Erining “Bas qil!”, qaynonasining “O‘zingni bos!” degan gaplarini tinglamay, ayol bog‘chaga qatnaydigan o‘g‘li – Shodlikni yetaklab, bemahalda ko‘chaga chiqadi. U avval dugonasi G‘aliyaning uyiga boradi. G‘aliya Saken degan o‘g‘li bilan yolg‘iz yashaydi. Saken ham Shodlikning tengdoshi. Uning otasi yo‘q. Saken otam okeandagi kemada kapitan, onam aytgan, u katta bo‘lganimda keladi, biroq men katta bo‘lsam, uning kelishini kutib o‘tirmayman, o‘zim kemaga chiqib, uni izlab topaman, deydi. Biroq G‘aliya o‘g‘lini yupatish uchun shunday bahonani o‘ylab topganini Saken bilmaydi, onasining esa dardi ichida. Oradan hech qancha vaqt o‘tmay, G‘aliyaning tug‘ilgan kunida mehmonga kelgan erkaklarning nojo‘ya so‘zlari tufayli Shodlikning onasi dugonasi bilan urishib qoladi va u yerdan ham ketadi.

Bir kampirning uyidagi torgina va g‘arib hujrani ijaraga olib, yashay boshlaydi. Kampirning Raya ismli beva qizi, ikkinchi sinfda o‘qiydigan Ruslan ismli nevarasi bor.

Raya kunora arzimagan narsani bahona qilib, Ruslanni kaltaklaydi, keksa onasini kurakda turmaydigan so‘zlar bilan haqorat qiladi. Bir kuni Rayaning uzoq O‘rolda yashaydigan bolasi mototsikldan yiqilib, qovurg‘alari sinib ketgani haqida xabar keladi. Xullas, bu uyda ham tinchlik yo‘q. O‘z xonadonidan janjal qilib chiqib ketgan ayol boshqalar uyidan halovat topolmaydi. Shodlik esa o‘z uyi, otasi va buvisini sog‘inib qiynaladi, azob chekadi. Hikoya oxirida Shodlikning otasi ularni izlab keladi, oila tugal topishadi.

Yozuvchi xalqning “O‘z uying – o‘lan to‘shaging” degan qadimgi hikmatini hikoya mazmuniga singdirib yuborgan, faqat o‘z ro‘zg‘oring, o‘z oilang bilan baxtli bo‘lasan, degan g‘oyani ilgari surgan. Oila, tinchlik va totuvlik qayerda bo‘lsa, baxt va shodlik o‘sha yerda, degan falsafiy xulosani badiiy-psixologik tahlillar orqali ochib bergan.

Qissada lirizm, poetik til jilolanib turadi. Asar qahramoni hikoya to‘qishga usta. Uning siymosida bo‘lajak yozuvchining timsoliga ishora qilingan. Tabiat tasviri, sifatlash va jonlantirishlar uyg‘unlashib ketgan matndan ko‘chirma keltiramiz:

“Bolalar bog‘chasida Shodlik do‘stlariga hikoya aytib berishni yoqtiradi. Uning hikoyalari cho‘pchakka o‘xshaydi.

– Bilasanmi, bizning ovulning quyoshi qip-qizil! Dum-dumaloq koptokka o‘xshaydi. Kechga yaqin yanayam qip-qizil ko‘rinadi, – deb havoda kichkina, nozik qo‘llari bilan doira chizib ko‘rsatdi. – Shu paytda osmonmi, yermi, oy va maysalar, daraxtlar, tog‘lar qip-qizil bo‘yoqqa bo‘yaladi. Bobom ikkimiz qip-qizil bo‘lib qizil otga minamiz. Shundan keyin tog‘-u toshlar, o‘rmon tomonga boramiz”.

Asarda yozuvchi fantaziyasi, so‘zning sehrli jilolari, keng tasavvurlar, o‘quvchi e’tiborini yalt etib o‘ziga qaratguvchi ranglar, bo‘yoqlar, holatlar yarqirab turadi. Adibning xarakter yaratish mahorati qahramonning ichki ruhiy holatini tasvirlash bilan hamohang bo‘lib ketgan:

“Shodlikning orqa tomonidan ovoz eshitildi. Ortiga o‘girilganida ustiga sepilgan muzdek suvdan tani titrab ketdi. Ammo o‘rnidan qo‘zg‘almadi”.

Shodlik Sakenga o‘xshagan bolalarning bunday qiliqlarini yoqtirmaydi. Hamma qilg‘iliqni o‘zlari qilib, aybni birovga ag‘darishadi. Bog‘chadagi bunday bolalarga Shodlik yaqin yo‘lamaydi ham, gapirmaydi ham:

“Saken hech narsa bo‘lmagandek turaverdi. O‘zining Shodlikni ataylab urishtirish uchun yolg‘ondakam yig‘laganini unutib yuborgan. Hozir bo‘lsa, Shodlik bilan o‘ynagisi kelib turibdi”.

Ushbu misolda aziyat chekkan bolaning irodasi tasvirlangan, ayni paytda, quvonch quvlik bilan, shumlik va soxtalik bilan chiqishmaydi, degan fikrni ham yozuvchi mahorat bilan ifoda etgan.

“Qo‘shnining o‘g‘li” hikoyasida Vatan, yurt kelajagi, toza va beg‘ubor muhabbat tarannum etiladi. Hikoyaning bosh qahramoni – o‘smir qiz Gulbarchin.

Qo‘shnining Murod degan o‘g‘li bor. Ular maktabda bir sinfda o‘qishadi. Gulbarchinning tog‘-u toshlar orasidagi olis ovulda yashaydigan tog‘asi mehmonga keladi. Hikoya boshidayoq Vatan tasvirlanadi. Yozuvchi go‘yo Vatanni emas, bolalar va katta odamlarni tasvirlagandek tuyuladi. Zimdan o‘ylasangiz, yozuvchi Vatanga muhabbat tuyg‘usini nihoyatda tiniq ifodalaganini sezasiz.

“(Tog‘amning) yashayotgan ovuli tepalikka chiqib qarasam, ko‘rinmaydigan olisda, anov cho‘qqilari osmon bilan bo‘y talashgan tog‘larning bag‘rida.

– Ko‘ngil qiymaydi-da, ko‘ngil, – deydi opam tog‘am haqida gap ochilib qolsa. – Butun hayoti o‘sha yerda o‘tdi. Men o‘sha yerda dunyoga keldim. Kindik qonim to‘kilgan ovulim jonimdan aziz.

Onam bu so‘zlarni aytganda ovozi titrab ketadi. Katta-katta tiniq ko‘zlari yosh tomchilaridan yaltiraydi. Mening kipriklarim ham o‘z-o‘zidan pirpirab, tomog‘imga tiqilgan so‘lagimni g‘ilt-g‘ilt yutaman”.

Mereke Kulkenov hikoyalarining tili xalqona va shirali. Quyida yozuvchining badiiy mahoratidan darak beruvchi ba’zi misollarga e’tiboringizni qaratamiz:

“Qo‘shni bo‘lsang yo‘lak bo‘l, bo‘lolmasang bo‘lak bo‘l”. Bu yerda xalq maqoli o‘rinli qo‘llangan.

Milliy urf-odatga aylanib ketgan go‘zal irimlar ifodasi ham hikoyaning badiiy qimmatini oshiradi:

“Uzangiga oyog‘imni tirashim bilan Murodning onasi uydan chiqqanda aytgan so‘zlari esimga tushdi.

– Sening mana bu qizing pishiq, qo‘shni. Uzangiga oyog‘ini chalishtirib solib olganini qara, – deganida opam:

– Tilingga tosh, qo‘shni, ko‘zing tegadiya, – deb so‘zini kesgan edi”.

Bolalar bir-biriga tegajoqlik qilib aytadigan topishmog‘i chiroyli keltirilgan:

“– Yegani qaymoq, o‘zi bir maymoq! U kim?”

Hozirjavob xalqning so‘z o‘yini, chechanligining badiiy asardagi ifodasi ko‘ngilga xush yoqadi:

“– So‘z desa, olti eshakka yuk ortasan. Darsdan javob ber desa, og‘zing yumilib, tiling baliqnikidek tutilib qoladi. Hech bo‘lmaganda shuning sababini ayt-chi, – dedim men ham bo‘sh kelmay.

– Bo‘yin yor bermaydi, – deb quloqchakkasiga bir soldi. Men uning o‘g‘il bolalik qilig‘iga qarab kuldim”.

Dunyoda tabiatni go‘zal tasvirlashga ruju qo‘ymagan yozuvchi bo‘lmasa kerak:

“Kechasi yomg‘ir yog‘gan ekan. Eshik oldidagi qovunning palaklarida oppoq munchoq tomchilar yaltirab turibdi”.

Ot – yigitning qanoti, turkiy xalqlarning hayoti, katta-yu kichikning joni. Mereke Kulkenovning otga muhabbati o‘zgacha. Xalq dostonlaridagi poetik an’analarga sodiqlik mahorati uning asarlarida bo‘rtib turadi:

“Suv ichib qongan Kertobelga yaqinlashdim. Ot asovligini hali ham qo‘ymabdi. Depsinib turibdi. Yumshoq yoliga qo‘limni olib borgan edim, bo‘ynini burib, pishqira boshladi. Keyin katta yumshoq quloqlarini qimirlatib pishqirdi-da qo‘llarimni yalay boshladi.

Jonivor meni unutmabdi. Cho‘ntagimdan qand olib chiqarib olaqonimda tutgan edim, yumshoq lablari bilan ilib olib, og‘ziga soldi-da “kurs-kurs” qilib chaynay boshladi. Kertobel bulturgacha bizning qo‘limizda bo‘lgan”.

Alpomish tulporining oti Boychibor. Yorining bedov otini Oybarchin yaxshi ko‘rgan. “Qo‘shnining o‘g‘li” hikoyasi qahramoni Gulbarchin suyib mingan arg‘umoqning oti Kertobel, ya’ni, ingichka bel. Otning beli botiq bo‘lib, yoy shaklida, hilol shaklida pastga egilib turganiga ishora shu nomda mujassam.

Turkiy tilda “kertilgan” degan so‘z bor, bu kamigan, to‘lmagan, uchgan degan ma’nolarni anglatadi. Qashqadaryo shevasida tig‘i “kertilgan” pichoqni, “katilgan” deydi. Mereke og‘aning hikoyasida aynan shu so‘z chiroyli otning nomida o‘zgacha jilo topgan.

Hikoyada yana bir go‘zal metafora bor. Bu Gulbarchinning mehribon tog‘asi tilidan juda binoyi ifodalangan:

“– Mening kichkina qo‘lqanotlarim, charchab qoldilaringmi? Hozir issiq choy, sho‘rva bilan quduqlaringni to‘ldiraman”.

Bir qissa va bir hikoya misolida adibning poetik mahoratiga bir qur nazar tashladik. O‘zbek tilida nashr etilgan “Shodlik” nomli kitobini o‘qib, bir olam estetik zavq oldik, hayratlandik.

Fursatdan foydalanib, atoqli adib va jamoat arbobi Mereke Kulkenovni qutlug‘ 75 yoshi bilan barcha o‘zbek adiblari va kitobxonlari nomidan samimiy muborakbod etamiz.

So‘zimizning yakunida shunday tilak bildiramiz: adabiyot yaratuvchi adiblar birlashsa, ellar birlashadi. Bu yozuvchilarning ham, tug‘ishgan xalqlarning ham baxti.

Birlashgan el o‘zayotir. To‘ylar muborak, to‘rog‘a!



Rustam MUSURMON,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi,
Qoraqalpog‘iston xalq shoiri

XIRMONGACHA YO‘L

Boshlanishi 1-sahifada.

Asrlar davomida paxta ekib kelgan Farg‘ona va Zarafshon vodiylarida serunum sug‘oriladigan yerlarga ega, dunyodagi eng katta paxta maydonlaridan birini o‘z ichiga olgan mamlakat uchun bunday quyi ko‘rsatkich o‘ta ajablanarli holat edi. O‘tgan yili esa dalalardan 70-90 sentnergacha paxta xomashyosi ko‘tarilib, yurtimizda o‘rtacha hosildorlik 45 sentnerga yetdi. Bu salmoqli qadam bo‘ldi.

Xo‘sh, nima uchun O‘zbekiston oldingi yillarda o‘z imkoniyatidan ancha past natija ko‘rsatgan edi? Qanday qilib birdaniga yuqori natijaga erishildi, nima o‘zgardi? Sohaga mas’ul sifatida menga ko‘p savol berishadi: “Bu rostmi? Oldingi tarixdagidek qog‘ozdagi gap emasmi?”, “Ha, endi, har 10 yilda bir paxta bo‘ladigan yil keladi. Bu yil bo‘larmikin?”

So‘nggi 8 yilda biz juda ko‘p narsani o‘zgartirdik: ko‘chat qalinligi va ekish sxemasi yangilandi, ko‘sak qurti va begona o‘tlarga chidamli biotexnologik navlar olib kelindi, mahalliy yangilangan zamonaviy genotiplar rayonlashtirildi, klasterlar tizimi ishga tushirildi, davlat tomonidan misli ko‘rilmagan qo‘llab-quvvatlash yo‘lga qo‘yildi. Yaqinda Paxtachilik kengashi a’zolari bilan dunyoning nufuzli Nature Portfolio tizimidagi Scientific Reports jurnalida tarixiy o‘zgarishlarni ilmiy asoslab, 2030-yilgacha prognozlar tahlil qilingan maqolani chop ettirdik. Xalqaro jamoatchilik buni model sifatida e’tirof eta boshladi.

Biroq mahalliy jamoalarimiz ichida hali “rostmikan” degan ikkilanish ketmayapti. Shu nuqtayi nazardan, paxtachilikning 8 qoidasini e’lon qildik, fermerlarni o‘tgan 6 oy mobaynida o‘qitdik. Natija dalada ko‘rina boshladi. Ammo bugun paxtachilikda eng muhim palla boshlanish arafasida har qanday ikkilanish va qoidaga amal qilmaslik katta zarar berishini oddiy qilib tushuntirish o‘ta dolzarb. Keling, tushunarliroq bo‘lishi uchun avval g‘o‘za va uning vegetatsiyasi haqida to‘xtalaylik.

BIZDA PAXTA TO‘LA PISHADIMI O‘ZI?

O‘zbekiston paxta yetishtiruvchi davlatlar ichida eng shimoliy hududlardan birida joylashgan. Tabiiy vegetatsiya davri 170-250 kungacha cho‘ziladigan g‘o‘za Amerika, Afrika yoki Avstraliya dalalarida uzoq issiq mavsum hisobiga to‘la pishib yetiladi. O‘zbekiston sharoitida, garchi quyosh, issiqlik, suv, dehqonchilik tajribasi va parvarish madaniyati yetarli bo‘lsa-da, g‘o‘zaning tabiiy jihatdan “to‘la” pishib yetilishi har doim ham oson kechmaydi. Vegetatsiya imkoniyati amalda 120-130 kun atrofida bo‘ladigan yurtimizda, odatda, qishning sovuq kunlari oktyabr oxiri – noyabr boshidan sezila boshlasa ham, avgust-sentyabr oylarida, hatto oktyabr boshida ham g‘o‘za o‘sishga, shoxlashga, barg chiqarishga, gullash va yangi ko‘sak bog‘lashga intilaveradi.

Albatta, shu o‘rinda oxirgi yuz yillikda o‘zbek seleksionerlarining eng katta tarixiy yutug‘ini alohida e’tirof etish kerak: ular g‘o‘zaning tabiatan uzoq vegetatsiyaga moyil navlarini O‘zbekistonning 110-130 kunlik qisqa mavsumida pisha oladigan madaniy navlarga aylantirishga ulkan hissa qo‘shdilar. Biroq o‘tgan yillardagi tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, ertapishar navning o‘zi ham to‘liq yechim bo‘la olmaydi. Shuning uchun O‘zbekistonda yaratilgan g‘o‘za navlari ertapishar bo‘lsa-da, “g‘o‘za yaxshi rivojlanyaptimi” degan savol bilan birga, “g‘o‘za o‘z vaqtida pishadimi”, “ko‘sak ochilarmikin”, “paxta tosh bosarmikin”, “fermerning butun mavsum davomida qilgan mehnati haqiqiy terib olinadigan hosilga aylanarmikin yoki bir qismi ochilmagan ko‘saklar dalada qolib ketarmikin” degan savollar bugun juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, paxtada haqiqiy hosil ko‘z bilan sanab qo‘yilgan yashil ko‘sak emas. Haqiqiy hosil – pishgan, ochilgan, tolasi shakllangan, chigiti to‘lgan, vazni og‘ir va terib olingan lo‘ppi paxtadir.

G‘o‘za tabiatan oddiy bir yillik o‘simlik emas. Uning tabiiy kelib chiqishida ko‘p yillik, daraxtsimon-butasimon xususiyat bor. Sharoit bo‘lsa, g‘o‘za o‘sishda davom etadi, yana shoxlaydi, yana barg chiqaradi, yana gullaydi, yana yangi ko‘sak tugaveradi. Biroq biz dehqonchilikda tabiatning mana shu qonuniyatlarini boshqarmasak, g‘o‘za biz kutgan hosilni berishga ulgurmaydi.

TARIX VA ILM XULOSASI

Tarixga nazar tashlasak, Amerika qit’asining tub aholisi g‘o‘zani madaniylashtirish jarayonida mana shu tabiiy muammoga o‘zlari bilmagan holda javob topgan. Ular sovuq tushishidan oldin qishlov joylariga ko‘chishga tayyorlangan, qalampir hosilini yig‘ishtirish jarayonida pishib yetilgan paxtani ham yig‘ib olgan, ertaroq ochilgan ko‘sak urug‘ini saqlagan, keyingi mavsumda yana qalampir bilan birga ekkan. Bu oddiy ko‘ringan dehqonchilik odati, ya’ni, ertapishar qalampir ekini ertapishar paxta genotipini tanlashga yordam bergan. Shu tariqa, tabiatda uzoq yashovchi, daraxtsimon-butasimon o‘simlik asta-sekin dala ekiniga, ertaroq pishadigan madaniy navlarga, tolasi inson hayotiga xizmat qiladigan ekinga aylangan.

Keyinchalik yevropaliklar Amerika qit’asiga kirib borgach, u yerda tub aholi tomonidan madaniylashtirilgan g‘o‘za urug‘lari namunalarini dunyoning turli hududlariga tarqatgan. Shuning uchun bugun dunyoda va bizda keng ekiladigan Amerika g‘o‘zasi, fanda Upland cotton deb ataladigan guruhning genetik asosi ham tarixan nisbatan tor bo‘lib qolgani ilm-fanda alohida qayd etilgan. Bu bizga yana bir muhim saboq beradi: paxtachilikda nav qanchalik muhim bo‘lmasin, buning o‘zi hamma muammoni hal qilib bermaydi. Ayniqsa, vegetatsiya davri qisqa bo‘lgan O‘zbekiston sharoitida ertapishar nav bilan birga, pishishni boshqarish texnologiyasi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

> **....Muhim raqamga e’tiboringizni qaratmoqchiman: bu yil fermerlarimiz paxtadan 13-14 trillion so‘m sof foyda olishi kutilmoqda. Shu asosda ular yil bo‘yi qilgan mashaqqatli mehnati evaziga munosib daromad topishi, odamlarimizning hayoti yanada obod va farovon bo‘lishi tabiiydir.**
>
> **Shavkat MIRZIYOYEV**
>
> *(O‘zbekiston dehqon va fermerlari hamda barcha qishloq xo‘jaligi xodimlariga tabrigidan).*



QANDAY YO‘L TUTISH KERAK?

Demak, paxtachilik tarixi ham, bugungi ilm-fan ham, O‘zbekiston dala tajribasi ham bitta haqiqatni ko‘rsatmoqda: g‘o‘za faqat o‘stiriladigan o‘simlik emas, u – pishiriladigan, mavsum oxirida to‘g‘ri yo‘naltiriladigan, butun to‘plagan ozuqasini ko‘sakka o‘tkazishiga yordam berilishi kerak bo‘lgan ekin. Jo‘n qilib aytganda, g‘o‘za navlariga agar kompyuterning texnik asosi, ya’ni hardware deb qaralsa, bu kompyuterga pishib yetilishini ta’minlaydigan dasturiy ta’minot, ya’ni software o‘rnatilishi kerak. Aks holda, kompyuter, ya’ni nav qanchalik zamonaviy, qanchalik ko‘p funksiyali va yuqori hosil salohiyatiga ega bo‘lmasin, dastursiz to‘liq ishlamaydi; demak, hosildorlik imkoniyati ham to‘liq ochilmaydi.

So‘nggi yillarda hosildorlikda ko‘rinayotgan ijobiy o‘zgarishlar, yangi navlar va texnologiyalarning natijasi, fermer va klasterlarning tajribasi, ilmiy tavsiyalarga bo‘lgan e’tiborning oshishi shundan dalolat beradiki, agar biz paxtachilikka tizim sifatida yondashsak, O‘zbekiston sharoitida ham yuqori hosil olish mumkin. Ammo har qanday islohotning samarasi oxirgi halqada – dalada, texnologiya intizomida, fermerning amaliy harakatida, mutaxassis nazorati va mahalliy rahbarlar mas’uliyatida ko‘rinadi.

Paxtachilikda aqlli kompyuterlarimiz, ya’ni navlarimizga kerakli eng zarur software – qarish signalini berish, bargni to‘kish (defoliatsiya) va poyani obdon quritish (desikatsiya) amaliyotidir. Ochig‘ini aytish kerak, qarish signalini berish hammaga yangilik, biroq defoliatsiya va desikatsiya masalasida bizda ko‘p yillardan beri noto‘g‘ri tushuncha shakllanib ulgurgan edi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu faqat fermerning xatosi emas. Ba’zan mahalliy hokimiyatlar rahbarlari ham, hatto ayrim seleksioner, olim-agronom va maslahatchi-mutaxassis ham “Bargni erta to‘ksak yoki g‘o‘zani quritishga kirishsak, ko‘sak vazni kamayib qolmaydimi, hosil yengillashib ketmaydimi?” degan xavotir bilan belgilangan tavsiyalarni tom ma’noda chetlab o‘tishga urinib kelgan. Ayrim hollarda defoliatsiya qog‘ozda bor, hisobotda bor, lekin dalada haqiqiy texnologik samara bermaydigan darajada kech, sust yoki noto‘g‘ri amalga oshirilgan holatlar bo‘lgan. Buni yashirish emas, undan to‘g‘ri xulosa qilish kerak.

Biz ko‘p yillar yashil g‘o‘zani ko‘rib, “g‘o‘za hali “ishlayapti”, yana hech bo‘lmasa bir-ikkita ko‘sak olsin”, deb o‘ylaganmiz, ammo mavsum oxirida yashillik ba’zan kechikish belgisi ekanini anglamaganmiz. Biz bargni to‘kishdan qo‘rqqanmiz, ammo bu terimni qiyinlashtirishi, sifatga ta’sir qilishi va, eng asosiysi, g‘o‘za ozuqasining bir qismi poya va bargda qolib ketishini yetarlicha o‘ylamaganmiz. Biz desikatsiyadan qochganmiz, ammo poya va ildizda to‘plangan ozuqa sovuq tushganda chirib ketishi, fermer mehnati esa to‘liq daromadga aylanmasligi mumkinligini tasavvur qila olmaganmiz. Afsuski, oramizda hali-hanuz buni to‘la tushunmaganlar bor.

Eng katta yo‘qotish ko‘pincha ko‘zga ko‘rinmaydi. Fermer dalaga qarab ko‘sak borligidan, rahbarlar g‘o‘za yashnab o‘sayotganidan, mutaxassislar ko‘sakni grammga aylantirib mo‘l hosil chamalashdan quvonamiz-u, biroq bu ko‘sak ochiladimi yoki bu hosil terib olinadimi, degan savolni vaqtida bermaymiz.

TASODIF EMAS, QAT’IY TEXNOLOGIYA

Tabiatda har bir o‘simlik urug‘ qoldirishga intiladi. G‘o‘za uchun bu – chigit va uni o‘rab turgan tola. Shu ma’noda, mavsum oxirida g‘o‘zaning butun vazifasi poya, shox, barg va ildizda to‘plagan ozuqasini ko‘sakka, chigit va tolaga o‘tkazishdan iborat bo‘lishi kerak. Lekin biz g‘o‘zani vaqtida pishishga yo‘naltirmasak, u o‘z genetikasida yozilgan 170-250 kunlik pishish dasturiga ko‘ra, sentyabr-oktyabr oylarida ham, ya’ni bizda amalda 120-130 kunlik vegetatsiya imkoniyati tugayotgan paytda ham o‘zini hali mavsum tugamagandek tutadi: yana barg chiqaradi, gullaydi, mayda ko‘sak bog‘laydi, poya yashil qoladi, ildiz va poyadagi ozuqa zaxirada saqlanib turaveradi. Chunki g‘o‘zada tabiiy dasturga asosan hali avlod qoldirishga umid bor, shu sababli, endi hosil qilgan yangi ko‘saklarni boqish uchun zaxirani ehtiyot qilib saqlaydi. G‘o‘zadagi bu “qayg‘urish” bizning qisqa vegetatsiya sharoitimizda faqat zararga ishlaydi. Poya va ildizlardagi kechki chigitga atalgan boylik hosilga aylanmaydi. Demak, biz mavsum davomida suv, o‘g‘it va quyosh orqali to‘plangan ozuqani oxirida ko‘sakka o‘tkazmasak, mehnatimiz natijasini dalada qoldirgan bo‘lamiz.

Mana shu yerda o‘simlikka qarish zarurligi to‘g‘risidagi xabarni berish, ya’ni, aging signali, barg ishlashini to‘xtatib, uni to‘kish, ya’ni defoliatsiya va hayotiy faollikni yakunlab, poyani quritish – desikatsiyaning haqiqiy ma’nosi namoyon bo‘ladi. Aslida, bu jarayonlar O‘zbekistonning qisqa vegetatsiya sharoitida g‘o‘zaga mavsum tugayotganligi signalini berish, eng muhimi, dalada ko‘sak holida turgan hosil imkoniyatini daromadga aylantirishga xizmat qiladigan muhim fiziologik-agrotexnologik jarayondir.

Qarish jarayoniga start berilsa, g‘o‘zada tabiiy mavsum yakunlanishi boshlanadi; defoliatsiyada g‘o‘za bargi shu qarish signali bilan hamohang ravishda poyadan uzilib tushadi, bargdagi faollik pasayadi, ko‘sakka quyosh va havo yetib borishi yaxshilanadi, terim yengillashadi. Desikatsiya esa mavsumni qat’iy yakunlash, o‘simlik to‘qimalarini suvsizlantirish, poya va bargda qolgan hayotiy faollikni to‘xtatib, g‘o‘zaga “endi o‘sish emas – pishish, endi yangi gul emas – mavjud ko‘sak, endi yashillik emas – hosil” degan yakuniy signalni beradi. Albatta, bu tadbirlarni ko‘r-ko‘rona qilish mumkin emas. Mavsum boshida, ko‘sak shakllanmasdan oldin qilinsa, zarar keltirishi mumkin. Noto‘g‘ri preparat, buzilgan me’yor, noqulay havo sharoiti yoki noto‘g‘ri texnika bilan qilinsa, samara bermaydi. Shu bois, bu masalaga hadik va ikkilanish bilan emas – ilm, tasodif emas – qat’iy texnologiya bilan yondashish kerak.

TO‘RT BOSQICH VA INTIZOM

O‘zbekiston sharoitida paxtachilik borasida ham aniq tartib va intizom bo‘lishi shart. Har bir bosqich zanjirning halqasi – biri uzilsa, oxirgi natija pasayadi.

Birinchi bosqich – ekish muddatini kechiktirmaslik. Mart oyining o‘rtalaridan aprel oyining o‘rtalarigacha bo‘lgan qisqa va maqbul muddatda chigit ekish ishlarini sifatli yakunlash g‘o‘zaga yetarli vegetatsiya davri berishning eng muhim shartidir. Eng yaxshi natija, odatda, mart oxiri – aprel boshida sifatli ekilgan maydonlarda ko‘rinadi.

Ikkinchi bosqich – avgust boshida g‘o‘zaga qarish yoki pishish signalini berish. Agar dalada gektariga kamida 200 ming atrofida sog‘lom tup shakllangan, har bir tup o‘rtacha 8-10 ta ko‘sak bog‘lagan bo‘lsa, bu jiddiy hosil asosi borligini anglatadi. Ana shu paytda, ya’ni mart oyining oxiri va aprel oyining birinchi yarmida ekilgan maydonlarda 1 avgustgacha, aprel oyining ikkinchi yarmi yoki may oyida ekilgan maydonlarda esa 5-avgustgacha etefon tarkibli preparatlar bilan ishlov berish zarur. Etefon – etilen ajratuvchi modda bo‘lib, etilen o‘simlikda pishish, qarish va mavsumni yakunlash signalini beruvchi tabiiy gormon hisoblanadi. Etefon orqali qarish signalini yubormasdan turib keyingi bosqichga o‘tish to‘liq samara bermasligi mumkin.

Uchinchi bosqich – bargni to‘kish. Etefon tarkibli preparatlar bilan ishlov berilganidan taxminan o‘n kun o‘tgach, yumshoq ta’sir etuvchi defoliantlar bilan ishlash lozim. Defoliatsiyani ikki marta o‘tkazish – birinchisi poyaning yuqori va o‘rta qismidagi barglarni tushirish, ikkinchisi pastki barglarni ham to‘liq to‘kish demakdir. Asosiysi, defoliatsiyani yumshoq va tartibli amalga oshirish bir marta kuchli ta’sirdan ko‘ra samaraliroq bo‘ladi, chunki maqsad o‘simlikni shokka tushirish emas, uni pishishga boshqaruvli o‘tkazishdir.

To‘rtinchi bosqich – mavsumni qat’iy yakunlash. Har yili havo harorati o‘rtacha 22 darajadan tusha boshlaganidan keyin, biroq 1-5 sentyabrdan kechiktirmasdan, qattiqroq ta’sir etuvchi magniy xlorati tarkibli tuzlar yoki dikvat ioni asosidagi desikantlar qo‘llanishi mumkin. Shu paytdan boshlab poya, shox va ildizda mavsum davomida to‘plangan ozuqa zoye ketmasdan, tola, chigit va ochilgan ko‘sakka xizmat qilishi kerak.

Bu yerda yana bir bor ta’kidlash joiz: preparat nomi emas, texnologiya intizomi muhim. Etefon, tidiazuron, diuron, dikvat ioni kabi ta’sir etuvchi moddalar fermerga yo‘nalish beradi, ammo har bir preparat faqat davlat ro‘yxatidan o‘tgan, qonuniy ruxsat etilgan, yo‘riqnoma asosidagi me’yorda, mutaxassis nazoratida, harorat, namlik, shamol va terim imkoniyati hisobga olingan holda qo‘llanishi shart. “Ko‘proq sepsam, tezroq bo‘ladi” yoki “umuman sepmasam, hosil og‘ir qoladi” degan qarash ham xato. Paxtachilikda ilmdan chetga chiqish har ikki holatda ham zarar keltiradi.

FAQAT O‘STIRISH EMAS, PISHIRISH KERAK

O‘zbekiston sharoitida paxta sentyabr oxiri – oktyabr boshida asosiy maydonlarda to‘la pishgan, ochilgan va terimga tayyor holatga kelishi lozim. Noyabrni kutib o‘tirish xavfli. Sohada “balki kuz yaxshi kelar” degan umidga emas, “men hosilni o‘z vaqtida pishira olaman” degan ishonchga tayanish kerak.

Shu o‘rinda yana hisobga olish kerakki, hamma dala bir xil emas. Viloyatlarning iqlimi, tuproq sharoiti, nav xususiyati, suv ta’minoti, ekish muddati, o‘simlik zichligi va hosil yuki turlicha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har qanday tadbir agronomik baholash bilan mutaxassis nazoratida amalga oshirilishi shart. Lekin asosiy tamoyil o‘zgarmaydi: O‘zbekistonda paxta pishishini boshqarmasdan, qarish signali, defoliatsiya va desikatsiyani o‘z vaqtida, to‘g‘ri va mas’uliyat bilan amalga oshirmasdan turib, yuqori hosil olish qiyin. Shuning uchun biz paxtachilikda fikrlash tarzini o‘zgartirishimiz kerak. Endi O‘zbekiston sharoitida paxtaning qisqa mavsumda pishishini yakunlash texnologik majburiyat bo‘lishi lozim.

Paxtachilikda katta hosil tasodifan paydo bo‘lib qolmaydi, u tizimli barpo etiladi. Ekish muddati, tup va ko‘sak soni, suv, ozuqa, zararkunanda nazorati, o‘sishni cheklash, qarish signali, defoliatsiya, desikatsiya va o‘z vaqtida terim – bular bir-biridan ajralmaydigan zanjirdir.

Bugun Yangi O‘zbekiston paxtachiligi oldida turgan ustuvor vazifamiz kamroq yerdan ko‘proq va sifatliroq hosil olish, fermer mehnatini daromadga aylantirish, davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar, subsidiyalar, yangi navlar, texnologiyalar va islohotlarning haqiqiy samarasini dalada ko‘rsatishdir. Buning uchun paxtani faqat o‘stirish emas, uni pishirishni ham boshqarishimiz shart. Bu yo‘lda qarish signali, defoliatsiya va desikatsiya oddiy agrotexnik tadbir emas, paxtachilik madaniyatining yangi bosqichidir.

* * *

Oldingi yillardagi kam hosildan chiqargan eng muhim sabog‘imiz shundan iboratki, biz ko‘p yillar davomida paxtani yetarlicha pishirmay terganmiz, g‘o‘zaning poyasi va ildizida qolgan “meros”ni ko‘sakka to‘liq o‘tkazmaganmiz. Terilgan dalalar ham qayta barg chiqarib gullab yotgan. Bugungi eng muhim xulosa esa shunday bo‘lishi kerak: g‘o‘zani texnologik usullar bilan o‘z vaqtida pishirish, uning “zaxira”sini dalada qoldirmaslik, mavsum davomida to‘plangan ozuqani mavsum oxirida ko‘sakka, tolaga, chigitga o‘tkazib, fermer daromadiga va mamlakat iqtisodiyotiga xizmat qildirish – O‘zbekiston paxtachiligida yuqori hosilning hal qiluvchi shartidir.



Ibrohim ABDURAHMONOV,
O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziri, akademik

ENDI BARAKA TOPDIK!



Tursunboy KOMILOV, “Komilov Tursunboy” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi ish boshqaruvchisi:

– Kuni kecha muhtaram Prezidentimiz 5 million tonnadan ziyod yuksak paxta xirmoni bilan qishloq xo‘jaligi vakillarini tabrikladi. O‘qib terimga sig‘madim.

Shavkat Miromonovich tabrikda: “Sobiq sovet davrida, xususan, 1980-yillarda respublikamizda paxta yetishtirish uchun qariyb 2 million gektar yer ajratilgan, o‘rtacha hosildorlik esa 30 sentnerdan oshmas, natijada dehqonning kosasi oqarmas edi”, deb ayni haqiqatni aytdi. O‘sha davrda “plan”ni bajarmasang “xalq dushmani”, bajarsang “qo‘shib yozuvchi” eding.

Dehqoncha gap shu: o‘zbek paxtadan so‘nggi o‘n yillikda baraka topdi. Chunki Davlatimiz rahbari tarmoqning o‘ta og‘ir ahvoliga real baho berdi va uni ko‘tarish uchun inqilobiy islohotlarni boshladi. Eng muhimi sohaga ilm-fan yutuqlari, zamonaviy agrotexnologiyalar kirib keldi.

26 yil oldin fermer xo‘jaligimni tashkil etganman. Oldinlari 25 sentner ham paxta ololmaganmiz. Xorij texnologiyasi asosida paxta yetishtirishni yo‘lga qo‘ygach, boshlanishiga har gektardan hosildorlikni 62 sentnerga yetkazdik. Bu yil esa 176 gektar paxtazordan 85 sentnerlik marrani urdik!

Men 75 yoshga kirib, insonning, uning mehnatining bugungiday qadri baland bo‘lganini ko‘rmaganman. Muhtaram Prezidentimiz o‘n yil ichida menga “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi” faxriy unvoni va “Mehnat shuhrati” ordenini topshirdi. Ishlamaysizmi shundan keyin ham?!

YOMON AYTMAY YAXSHI YO‘Q



Sayfulla TURSUNOV, tarix fanlari doktori, professor:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston dehqon va fermerlari hamda barcha qishloq xo‘jaligi xodimlariga tabrigidagi ushbu band kishini chuqur o‘yga toldiradi, bugungi kunga shukrona hissini oshiradi: “Bu haqda gapirganda, beixtiyor paxtachilik el-yurtimizga manfaat emas, balki azob-uqubat va oxir-oqibatda “o‘zbek ishi” degan quruq tuhmat olib kelgan og‘ir kunlarni eslaymiz. “Kim edig-u kim bo‘ldik?” degan fikr albatta xayolimizdan o‘tadi”.

Darhaqiqat, o‘tgan asrning 80-yillari O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy tarixida murakkab va ziddiyatli davr sifatida alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi” nomi bilan tarixga kirgan tergov-surishtiruv jarayonlari respublikaning siyosiy boshqaruvi, iqtisodiy hayoti va ijtimoiy munosabatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Dastlab paxta yetishtirish va davlat rejasini bajarish jarayonidagi qonunbuzarliklarni aniqlash shiori ostida boshlangan ushbu kampaniya keyinchalik tom ma’nodagi qatag‘onga aylanib ketdi.

Markazdan yuborilgan tergov guruhlarining faoliyati natijasida ko‘plab rahbarlar, mutaxassislar va oddiy mehnatkashlar tergov jarayonlariga jalb qilindi. Tergov harakatlarida qo‘llanilgan usullarning muhim xususiyati ayblovlarni quyi bo‘g‘indan yuqori boshqaruv pog‘onalariga qarab rivojlantirish bo‘lgan. Ayrim holatlarda guvohlarning ko‘rsatmalari tahdid, ruhiy bosim va jismoniy zo‘ravonlik orqali shakllantirilgan.

Yomon aytmay yaxshi yo‘q, deydilar. 1980-yillarda 5-6 millionlik marra deb bong urilardi, ammo u xalqning qon yutib qilgan zahmati edi. Bugungi 5 millionlik xirmon esa adolatning hosili, halol mehnat va zamonaviy fan va texnologiyasining samarasi. O‘tgan tarixlarning guvohlari va ularning oila a’zolari hali hayot. Ular, ayniqsa, Davlat rahbarining: “Qishloq xo‘jaligi sohasidagi strategik yo‘limizni amalga oshirishda biz, avvalo, sizlarga, agrotarmoqda faoliyat ko‘rsatayotgan 3,5 million nafardan ziyod mirishkorlarga tayanamiz. Sizlar uchun yana qanday qo‘shimcha sharoit va imkoniyatlar yaratish kerak bo‘lsa, barchasini ta’minlab berishga tayyormiz”, degan so‘zlarini chuqur anglaydi va tushunadi.

ASRIY MADANIYATLAR CHORRAHASI

Boshlanishi 1-sahifada.

2007-yilda shaharning 2750 yilligi YUNESKO ishtirokida xalqaro miqyosda nishonlangan ekan, bu sanalar Samarqandni Rim, Afina va Bobil kabi qadimiy shaharlar bilan bir qatorga qo‘yadi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda So‘g‘d o‘lkasi Ahamoniylar davlatiga qaram bo‘lgani, miloddan avvalgi 329-yilda esa shaharni Iskandar Zulqarnayn egallagani va yunon tarixchilari asarlarida u Marakanda nomi bilan tilga olingani ma’lum. Bu qisqa muddatli siyosiy tobeliklar shaharning madaniy qiyofasini belgilab bergan omillar qatoriga kirmasligini tarixchilar bir ovozdan e’tirof etadilar. Vizantiya tarixchisi Menandr Protektor yozib qoldirganidek, 568-yilda Turk xoqoni Istami Konstantinopolga elchilar yuborib, ipak savdosi bo‘yicha imperator Yustin II bilan muzokara olib borgan ekan, bu hodisa Buyuk Ipak yo‘lidagi savdoning eng muhim markazlaridan biri bo‘lgan Samarqandda o‘sha davrdayoq xalqaro diplomatiya yuksak darajaga ko‘tarilganini isbotlaydi.

VIII asrning o‘rtalarida Xitoydan kelgan qog‘oz ishlab chiqarish san’atining Samarqandda rivoj topib, keyin Bag‘dod orqali butun Islom olami va Yevropaga yoyilgani bu shahar moddiy mahsulotlar bilan birga tafakkur vositalarini ham butun insoniyatga ulashgan maskan bo‘lganini ko‘rsatsa, YUNESKO 2001-yilda Samarqandni Jahon merosi ro‘yxatiga aynan “Samarqand – madaniyatlar chorrahasi” nomi bilan kiritgani shu tarixiy haqiqatning xalqaro e’tirofi bo‘lib qoldi.

712-yilda Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi arab qo‘shini Samarqandni egallaganidan so‘ng, shahar islom ilmi va madaniyatining yetakchi markazlaridan biriga aylanib bordi. X asrning oxiridan XIII asr boshlarigacha bo‘lgan qariyb ikki yuz yil mobaynida Samarqand turkiy Qoraxoniylar davlatining, keyinroq G‘arbiy Qoraxoniylar xonligining poytaxti bo‘lib turdi va shahar hayotida turkiy sulolaning bunyodkorlik siyosati hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Samarqandning iqtisodiy qudrati o‘sha asrlardayoq qit’alar osha tanilgan bo‘lib, IX-X asrlarda Samarqand va Shosh zarbxonalarida zarb qilingan kumush dirhamlar Buyuk Ipak yo‘li va Volga savdo yo‘li orqali Sharqiy Yevropa va Skandinaviyagacha yetib borgan. Bu Samarqand o‘sha davrda mintaqaviy shahar doirasidan chiqib, Yevroosiyo savdosining moliyaviy markazlaridan biriga aylanganini, uning tanga-pullari esa uzoq shimoliy o‘lkalarda ham ishonchli to‘lov vositasi sifatida qabul qilinganini ko‘rsatadi.

Qoraxoniy hukmdor Ibrohim Tamg‘ach Bug‘raxonning 1066-yilda Samarqandda madrasa va shifoxona uchun bitgan vaqfnomasi bugungacha saqlanib qolgan bo‘lib, bu hujjat turkiy hukmdorning ilm-fan va tibbiyotga homiylik qilish an’anasini aniq ko‘rsatadi, Afrosiyob arki hududida Qoraxoniylar saroyidan topilgan XII asr oxiriga oid devoriy suratlarda turkiy kiyimdagi hukmdor va kamon tutgan jangchilar tasvirlangani esa arxeolog Y.Karev va F.Grene tadqiqotlarida ilmiy jihatdan asoslangan.

XI asrda Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit turk” asarida Samarqand nomini turkcha “Semizkent”, ya’ni, katta va obod shahar ma’nosida izohlagan ekan, zamonaviy tilshunoslik bu nomning kelib chiqishini boshqacha talqin qilsa-da, Koshg‘ariy izohi turkiy xalqlar bu shaharni o‘z yurti va o‘z tili doirasida anglaganini aks ettiruvchi tarixiy hujjat sifatida qimmatini saqlab qoladi. 1220-yil martida Chingizxon Samarqandni qamal qilganida, shaharni Xorazmshoh Muhammadning asosan turkiy qang‘li qabilalaridan tuzilgan qo‘shini himoya qilgan bo‘lsa-da, qamal og‘ir vayronagarchilik bilan yakunlangan edi, biroq mo‘g‘ul istilosi ham shaharning mintaqadagi markaziy



maqomini o‘zgartira olmaganini manbalar aniq ko‘rsatib beradi.

Samarqandni jahon tarixidagi eng ulug‘ poytaxtlardan biriga aylantirgan zot Sohibqiron Amir Temur bo‘lib, u 1370-yilda o‘z davlatining poytaxti etib ayni shu shaharni tanlagan va uni butun Sharqning siyosiy, ilmiy va madaniy markaziga aylantirish uchun davlatining bor imkoniyatini safarbar qilgan. Bibixonim masjidi 1399–1404-yillarda bunyod etilib, o‘z davrida Movarounnahrdagi eng ulkan jome masjidi bo‘lgani, Go‘ri Amir maqbarasi 1403-1404-yillarda Sohibqironning sevimli nevarasi Muhammad Sulton xotirasiga qurilib, keyinchalik temuriylar xilxonasiga aylangani, Shohi Zinda majmuasi esa Qusam ibn Abbos ziyoratgohi atrofida XIV-XV asrlarda temuriy malikalar va amirlar uchun qurilgan maqbaralar silsilasidan iborat ekani me’morchilik tarixida batafsil o‘rganilgan. Bu inshootlarda Movarounnahr Xorazm va Xuroson me’morchilik an’analari uyg‘unlashgan bo‘lsa-da, ularni bir butun g‘oya asosida tashkil etgan

π sonini o‘nli kasr ko‘rinishida o‘n olti xonagacha aniqlik bilan hisoblagan, bu natija Yevropada faqat bir yarim asr o‘tgachgina takrorlangan, Ulug‘bekning o‘zi esa bir darajali yoyning sinusini juda yuqori aniqlikda hisoblashning yangi usulini ishlab chiqqan.

Temuriylar davrida Samarqand va Hirot turkiy adabiy tilning yetakchi markazlariga aylangani alohida ta’kidlashga arziydi, chunki Mirzo Ulug‘bek saroyida ijod qilgan Sakkokiy o‘z qasidalarini turkiy tilda bitib, Ulug‘bek va Xalil Sulton kabi temuriy hukmdorlarni madh etgan, Mavlono Lutfiy esa turkiy g‘azalning shunday yuksak namunalarini yaratganki, keyinchalik Hazrat Alisher Navoiy uni “Malik ul-kalom” deb ulug‘lagan. Ulug‘bek qalamiga mansub “To‘rt ulus tarixi” asari turkiy hukmdorlar o‘z tarixini o‘zlari yozib qoldirishni davlat vazifasi deb bilganini ko‘rsatsa, Amir Temurning 1391-yilda To‘xtamishxonga qarshi yurish chog‘ida Qarsaqpoy tog‘idagi qoyaga turkiy tilda o‘ydirgan bitigi iroda temuriylar davlatiga tegishli ekanini mutaxassislar e’tirof etadilar, shu bois Samarqand me’morchiligi jahon san’atshunosligida alohida “temuriylar uslubi” nomi bilan o‘rganiladi.


Mirzo Ulug‘bek 1409-yildan 1449-yilgacha Samarqand hokimi bo‘lib turgan qirq yil mobaynida bu shahar dunyo ilm-fanining eng yuksak markazlaridan biri darajasiga ko‘tarildi. Zero, Ulug‘bek 1417–1420-yillarda Registonda madrasa qurdirib, unda riyoziyot, hay’at va falsafa ilmlarini madrasa ta’limining asosiy qismiga aylantirgan, 1420-yillarning oxirida esa Ko‘hak tepaligi etagida o‘z davrining eng yirik rasadxonasini barpo etgan. Samarqand ilmiy maktabining yutuqlari faqat astronomiya bilan cheklanib qolmagan, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy 1424-yilda Samarqandda yozgan “Ar-Risolat al-muhitiya” asarida nomiga “Samarqandiy” nisbasini qo‘shib o‘tgan allomalar ham butun Islom olamiga yoygan, ular diniy ilmlarning eng yuksak cho‘qqilarini zabt etgan edilar. Imom Abu Mansur Moturidiy (vafoti 944) shu shaharda yashab, bugun dunyo musulmonlarining katta qismi ergashadigan Moturidiya kalom maktabiga asos solgan, Abdulloh ad-Dorimiy (vafoti 869) “Sunan” asari bilan hadis ilmida, Abu Lays Samarqandiy (vafoti 983) “Tanbehul g‘ofilin” asari bilan axloq va fiqhda, Najmiddin Umar Nasafiy (vafoti 1142) “Al-Aqoid an-Nasafiya” asari hamda Samarqand ulamolari haqidagi “Al-Qand” tazkirasi bilan ilm tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Alouddin Samarqandiyning “Tuhfatul fuqaho” asari esa Hanafiy fiqhining asosiy manbalaridan biri sifatida bugungacha o‘rganilmoqda.

Dunyoviy ilmlar sohasida ham Samarqand maktabining vakillari yetakchilik qilgan. XIII asrda tibbiyot bo‘yicha “Asbob va alomat” asarini yozgan Najibuddin Samarqandiy, mantiq, geometriya va munozara ilmida asarlari asrlar davomida darslik bo‘lib xizmat qilgan Shamsuddin Samarqandiy, XII asrda “Chahor maqola” asari bilan mashhur bo‘lgan Nizomiy Aruziy Samarqandiy, XV asrda “Matla’i sa’dayn” solnomasini bitgan tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy va 1487-yilda “Tazkiratush shuaro” asarini yaratgan Davlatshoh Samarqandiy kabi olimlarning merosida Samarqandning ilmiy maktabi ko‘p tilli va ko‘p qirrali bo‘lgani yaqqol ko‘rinadi.

XX asr boshida Samarqand Turkiston jadidligining eng muhim markazlaridan biriga aylandi. Mahmudxo‘ja Behbudiy bu shaharda 1913-yilda “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalini tashkil etib, 1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi bilan o‘zbek teatrining poydevorini qo‘ygan, o‘z maktablari va nashrlari orqali yangi usul ta’limi g‘oyasini butun o‘lkaga yoygan edi.

Mustaqillik yillarida Samarqandning xalqaro nufuzini tiklash va yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Shaharning tarixiy qismi 2001-yilda YUNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan ekan, bu e’tirof shaharning muhofazasi uchun mas’uliyatni xalqaro hamjamiyat oldida mustaqil O‘zbekiston davlati o‘z zimmasiga olganini ham anglatadi.

Yangi O‘zbekiston davrida bu siyosat yangi bosqichga ko‘tarilib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Samarqandda Imom Buxoriy va Imom Moturidiy nomidagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari tashkil etildi, Imom Buxoriy majmuasi yangidan bunyod etildi, 2022-yilda esa “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro turizm markazi foydalanishga topshirildi. Davlatimiz rahbari ushbu markazning ochilish marosimida Samarqand milliy davlatchiligimiz va, umuman, jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida o‘ringa egaligini ta’kidlab, bu shahar tariximizdagi har ikkala Renessansning yuzaga kelishida muhim rol o‘ynaganini qayd etar ekan, Samarqandning ham milliy, ham umuminsoniy qadriyati bir jumlada ifodalab berdi.



Shu siyosatning natijasida Samarqand so‘nggi yillarda xalqaro siyosat va madaniyatning eng nufuzli uchrashuvlari bo‘ladigan shaharga aylandi. 2022-yil sentyabrda bu yerda SHHT davlat rahbarlarining sammiti 2023-yil oktyabrda BMT Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasi, 2024-yil fevralda esa BMTning Ko‘chmanchi yovvoyi hayvon turlarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiyasi ishtirokchilarining 14-konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

2025-yilda Samarqand Islom hamkorlik tashkilotining ta’lim, fan va madaniyat bo‘yicha tashkiloti tomonidan Islom dunyosining madaniyat poytaxti deb e’lon qilindi, shu yilning oktyabr-noyabr oylarida YUNESKO Bosh konferensiyasining 43-sessiyasi birinchi marta Parijdan tashqarida, aynan Samarqandda o‘tkazildi. 2026-yil oktyabrda Osiyo konstitutsiyaviy sudlari va ekvivalent institutlari assosiatsiyasining VII kongressi va “Markaziy Osiyo + AQSH” formatidagi vazirlar uchrashuvining ham shu shaharda bo‘lib o‘tgani O‘zbekistonning Samarqandni zamonaviy dunyoning muhim muloqot maydoniga aylantirgani natijasidir.

Bunday uchrashuvlar uzoq yillar davomida asosan Jeneva, Vena, Parij va Nyu-York kabi shaharlarda o‘tkazib kelingani hisobga olinsa, Samarqandning so‘nggi to‘rt yil ichida bir necha yirik xalqaro forumga mezbonlik qilgani bu shahar dunyo siyosati va madaniyatining yetakchi markazlari bilan tenglashib borayotganini ko‘rsatadi. Buning uchun shaharda yangi aeroport terminali, xalqaro kongress markazi, zamonaviy mehmonxonalar va transport tizimi barpo etilib, tarixiy yodgorliklar bilan zamonaviy infratuzilma uyg‘un rivojlantirilmoqda. Shu tariqa, Samarqand qadimiy merosni munosib asrab-avaylab, ayni paytda, zamonaviy dunyo talablariga javob bera oladigan shahar namunasiga aylanmoqda.

Akrom MALIK,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

OLAM OLIMI

JORES ALFYOROV — NOBEL MUKOFOTI SOHIBI



Yarimo‘tkazgichlar fizikasida inqilobiy kashfiyotlar yaratib, zamonaviy elektronika va axborot texnologiyalari rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk olim.

Olimning kashfiyotlari optik tolali aloqa, lazer texnologiyalari, quyosh energetikasi, mikroelektronika va zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarining rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi.

HAYOTI

Jores Ivanovich Alfyorov 1930-yil 15-martda Belorussiyaning Vitebsk shahrida tug‘ilgan.

Dastlab Belorussiya politexnika institutida tahsil olgan.

1953-yildan boshlab A.F.Ioffe nomidagi Fizika-texnika institutida ilmiy faoliyatini davom ettirgan. Dastlab kichik ilmiy xodim sifatida ish boshlagan olim qisqa vaqt ichida yarimo‘tkazgichlar fizikasi sohasidagi yetakchi tadqiqotchilardan biriga aylandi.

1961-yilda texnika fanlari nomzodi, 1970-yilda esa fizika-matematika fanlari doktori ilmiy darajasini oldi. 1972-yilda professor ilmiy unvoniga sazovor bo‘ldi.

ILMIY YO‘NALISHLARI

Jores Alfyorovning asosiy ilmiy tadqiqotlari yarimo‘tkazgichli geteroo‘tishlar, geterotuzilmalar, kvant fizikasi va optoelektron qurilmalarni yaratishga qaratilgan edi.

Olim ishlab chiqqan geterotuzilmalar turli xususiyatlarga ega bo‘lgan yarimo‘tkazgich materiallarni birlashtirish orqali elektron va optik jarayonlarni yuqori darajada boshqarish imkonini berdi.

AHAMIYATI

Alfyorov rahbarligida rivojlantirilgan geterotuzilmali quyosh batareyalari 1986-yilda “Mir” kosmik stansiyasiga o‘rnatilgan. Bu esa olimning ilmiy g‘oyalari amaliy hayotda qanday katta samara berganini ko‘rsatadi.

E’TIROF

2000-yilda Jores Alfyorov yarimo‘tkazgichli geterotuzilmalarni rivojlantirish va yuqori tezlikda ishlovchi optoelektronika sohasidagi xizmatlari uchun fizika bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Ushbu mukofotni u germaniyalik fizik Gerbert Kremer va amerikalik olim Jek Kilbi bilan birgalikda qo‘lga kiritdi.

XULOSA

Jores Alfyorovning yarimo‘tkazgichli geterotuzilmalar sohasidagi kashfiyotlari insoniyatning axborot almashish, energiyadan foydalanish va yuqori texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

ANJUMAN

MOZIY KUYCHISI

Shunday yozuvchilar borki, ular poytaxtning qaynoq adabiy muhitidan birmuncha chetda yashab ham, o‘z ijodi bilan mana shu qaynoq muhitning e’tibor markazida bo‘la oladilar, qishloq qalbi bilan samimiy asarlar yozib, el nazariga tushadilar. Hozirga qadar yigirmaga yaqin kitoblari e’lon qilingan Jo‘ra Fozil shunday adiblar sirasiga kiradi.

Yozuvchi hayotiga chuqurroq nazar tashlasangiz, uning bolalik va yoshlik yillari tariximizning og‘ir va mashaqqatli davrlariga to‘g‘ri kelgani, astoydil intilish va harakat orqali inson o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishi mumkinligiga yana bir bor amin bo‘lasiz.



Zamonaviy adabiyotimizda o‘z so‘zi va o‘rniga ega bo‘lgan zahmatkash va iste’dodli adib, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Jo‘ra Fozil haqida so‘z borganda, dastavval, oddiy va kamtarin inson siymosi tasavvurimizda jonlanadi. Ayni paytda, nuroniy 77 yoshida ham faol qalam tebratib kelayotgan adibning badiiy barkamol asarlari allaqachon ko‘p sonli o‘quvchilarning ma’naviy mulkiga aylangan.

Bugungi kunda mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, yozuvchi va shoirlarni qo‘llab-quvvatlash, adabiyotga e’tibor davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangani, ayniqsa, keyingi o‘n yilda ijodkorlar mehnatini munosib baholash va ularga ijodiy sharoit yaratish maqsadida tizimli ishlar amalga oshirilayotganiga barchamiz guvohmiz.

Yaqinda Buxoro davlat universitetida bo‘lib o‘tgan “Moziyda turkiy qavm va o‘zbeklarning milliy mustaqillik hamda davlatchilik uchun olib borgan kurashlar tasviri” mavzuidagi respublika ilmiy konferensiyasi ham adabiyotga qaratilayotgan e’tibor namunasi bo‘ldi. Respublikamizdagi taniqli olim va yozuvchilar ishtirok etgan ushbu anjuman milliy adabiyotimizning iste’dodli vakili bo‘lmish Jo‘ra Fozilning serqirra ijodi hamda asarlarida ifodalangan milliy mustaqillik, davlatchilik, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlar masalalarini chuqur tadqiq etishga bag‘ishlandi.

Anjumanda ta’kidlanganidek, badiiy adabiyot inson va jamiyat hayotining oddiy tasviri emas, u xalqning tarixiy xotirasini, orzu-intilishlarini, milliy ruhiyati va ezgu g‘oyalarini, kelajak haqidagi tasavvurlarini o‘zida mujassam etadigan bebaho ma’naviy boylikdir. Jo‘ra Fozil asarlarini o‘rganish ham xalqimizning tarixiy tafakkuri, milliy o‘zlikni anglash jarayoni va badiiy-estetik qarashlarini yanada chuqurroq idrok etish imkonini beradi. Inson taqdiri, tarix, jamiyat, kurash va quvonch aks etadi bu asarlarda.

Tadbirda so‘zga chiqqanlar yozuvchining “Ayriliq ostonasi”, “Buxoro malikasi”, “Buxoroyi sharif elchilari” kabi tarixiy asarlari, shuningdek, “So‘nmas chiroqlar”, “Tiyramoh armonlari” kabi qissalarining mazmun-mohiyatiga alohida to‘xtalib o‘tdilar.

Pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo‘ldoshev, O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron kabi ziyolilarning Jo‘ra Fozil ijodiga yuqori baho bergani ham bejiz emas.

Konferensiya ishida Sadriddin Ayniy nomidagi Tojikiston davlat pedagogika universiteti ilmiy jamoasi vakillari ham onlayn shaklda o‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etdi. Ma’ruzalar davomida turkiy xalqlar va o‘zbek davlatchiligi tarixi, milliy mustaqillik uchun olib borilgan kurashlarning badiiy adabiyotdagi ifodasi, yozuvchi Jo‘ra Fozil ijodining tarixiy-ma’rifiy ahamiyati hamda milliy o‘zlikni anglash masalalariga muhim e’tibor qaratildi. Tadbirda adib ijodiga bag‘ishlangan videorolik namoyish etildi.

Anjuman tajribali olimlar va yosh tadqiqotchilar o‘rtasidagi ilmiy muloqotni mustahkamlashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatli bo‘ldi.

Adib betakror asarlar yozish bilan birga tarjima jabhasida barakali qalam tebratib, o‘zbek kitobxonlariga jahon nasri namunalarini taqdim etgani ham ahamiyatlidir. Xususan, Konstantin Paustovskiyning “Sevgi” romani va turkum hikoyalarini, Viktor Astafyevning “G‘amgin sarguzasht” romani va “Munavvar yulduzlar” qissasini kitobxonlarimiz aynan Jo‘ra Fozil mehnati sabab ona tilida o‘qib kelmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Jo‘ra Fozil zamon shiddatidan yoshlar kitobdan uzoqlashyapti, deb nolib o‘tiradigan adiblardan emas. Shu yoshda ham yeng shimarib, xalqning ma’naviy ehtiyojini qondirish, o‘z ijodini muxlislarga yetkazish yo‘lida ijtimoiy tarmoqlarda sahifa yuritib, video shaklda postlar joylab bormoqda. Bu ishga bosh qo‘shganlardan ham minnatdormiz.

Muhtaram Prezidentimiz Farmoni bilan Jo‘ra Fozil respublika va hududiy matbuot nashrlaridagi ko‘p yillik samarali mehnati, milliy adabiyotimiz rivojiga qo‘shgan hissasi, o‘zbek adabiyoti xazinasini tarixiy va zamonaviy mavzudagi yorqin asarlar, tarjimalar bilan boyitish, yosh avlodni Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi xizmatlari hamda tavalludining yetmish yilligi munosabati bilan 2019-yilda davlatimizning yuksak mukofotlaridan biri – “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan. Zero, bu yurtda inson va uning mehnati, badiiy va intellektual salohiyati qadrlanadi va munosib e’tirofini topadi. Adibimizning hayot yo‘li buning yorqin misolidir.

Niyatimiz, ustoz adib va tarjimon Jo‘ra Fozilning umri uzoq, ijodi yanada barakali bo‘lsin! Og‘ir yillarda tarixiy mavzuda asar yozib, ma’naviy jasorat ko‘rsatgan adib bugungi ochiqlik, erkinlik, arxivlarga yo‘llar ochilib, turli taqiqlar bekor bo‘lgan davrda yangi kuch-g‘ayrat bilan ijodga sho‘ng‘ishiga aminmiz. Bu borada ustozga sabr-bardosh, salomatlik va yuksak ilhom tilab qolamiz.

Hamid G‘AFUROV,
Obid QO‘LDOSH

JAHON AYVONIDA

SENATDA DEMOKRATLAR G‘ALABASI

AQSHda bo‘lib o‘tgan saylovlarda demokratlar respublikachilarni mag‘lub etib, Senat ustidan nazoratni qo‘lga kiritdi.



“The Guardian” xabariga ko‘ra, Vakillar palatasida ham demokratlarning g‘alabasi kutilmoqda – bu holatda ular 2027-yildan boshlab Kongressning har ikki palatasini to‘liq nazorat qiladi.

BRITANIYANING UZRI

Buyuk Britaniya hukumati maktablarda ukrain tilidan imtihon topshirish imkoniyati yo‘qligi sababli rus tilini o‘rganishga majbur bo‘lgan ukrainalik qochqin bolalardan uzr so‘radi.



“The Guardian” xabariga ko‘ra, 2028-yildan boshlab Angliyada ukrain tili bo‘yicha davlat imtihoni joriy etiladi – bu haqda maktab ta’limi bo‘yicha vazir Jorjiya Guld ma’lum qilgan.

PREZIDENT MA’LUMOTLARI TARQALDI

Janubiy Koreya prezidenti Li Chje Myon va uning Yevropa safarida qatnashgan 168 kishining shaxsiy ma’lumotlari internetda tarqalib ketdi.



“Reuters” xabariga ko‘ra, ochiqlangan ro‘yxatda prezident hamda uning rafiqasining pasport ma’lumotlari ham bor – mazkur holat yuzasidan mamlakat Tashqi ishlar vazirligi tekshiruv boshlagan.

CHEGARADAGI MAXSUS OPERATSIYA

Polsha razvedkasi Rossiya bilan chegaradan qurollangan guruhlar kirib kelishi mumkinligidan ogohlantirdi – shu sababli Kaliningrad viloyatiga tutash hududlarda maxsus operatsiya boshlandi.

“Deutsche Welle” xabariga ko‘ra, politsiya rahbariyati mamlakat harbiy razvedkasi va ittifoqchilardan ehtimoliy diversiyalar yuzasidan tegishli ogohlantirish olgan.

MOZIYDAN SADO

KUNJARAGA KUNI QOLGANLAR...

Kunjara – paxta chigitidan yog‘ olishda hosil bo‘ladigan chiqindi, qoldiq mahsulot. Bu chiqindi tarkibida, ozroq bo‘lsa-da, yog‘ borligidan, chorva mollariga to‘yimli ozuqa hisoblanadi. So‘qimga boqiladigan ho‘kizlarga kuniga ikki mahal kunjara yedirilsa, vazni tez oshadi, go‘shti ham shirin keladi. Shundan bu turdagi chorva ozuqasiga bo‘lgan talab katta – narxi ham arzon emas! Ammo... Katta avlod vakillari xotirasida “kunjara” so‘zi yomonotliq bo‘lib qolganki, buning jiddiy sabablari bor.

Xorazmning yaqin o‘tmishida aynan “kunjara” ko‘p eslanadigan ikki davr bor. Birinchisi, 1933-1934-yillar voha tarixiga “Kunjara yili” deb kiritilgan. Sovetlar vohada kuch va qo‘rquv bilan kolxozlashtirish siyosatini o‘tkazar ekan, yildan yilga ekin maydonlarining asosiy qismiga paxta ekishni majburiy qilib qo‘yishadi. Masalan, birgina Gurlan tumanida 1933-yilda 6977 gektar yerga paxta, 160 gektar yerga bug‘doy, 84 gektarga sabzavot va 334 gektarga poliz ekinlari ekilgan. Kolxoz a’zolari paxta dalalarining chekkalari va tashlandiq yerlarga ekkan bug‘doy yoki boshqa oziq-ovqat ekinlarini ma’muriy organ xodimlari buzib tashlagani natijasida, 1934-yilda ocharchilik yuzaga kelgan. O‘sha vaqtlarda hududga temir yo‘l tortilmagani sababli, bug‘doy yoki boshqa mahsulotlar bu yerga daryo orqali tashilardi. Sobiq ittifoqda sun’iy tarzda uyushtirilgan “ocharchilik” tufayli ayrim respublikalarda millionlab aholi ochlikdan qirilib ketayotgan zamonda uzoq voha ahlini kim o‘ylardi, deysiz?

Odamlar ochlikdan jon saqlash uchun kunjarani suvga ivitib yeyishga majbur bo‘ladi. Tarkibida yog‘ bo‘lganidan kunjara to‘yimli keladi, ammo undagi zararli moddalar inson jigarini ishdan chiqargan, ko‘pchilik shishib vafot etgan. Kunjarani qatiq yoki sut bilan aralashtirib iste’mol qilganlar omon qolgan, ammo chorva mollari ham “umummulk” sifatida kolxozga olingani uchun ko‘pgina xonadonlarda sut-qatiq qayda?

Arxivlarda saqlanib qolgan hujjatlarda Xorazm okrugi aholisi 1932-yilda 342765 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, 1934-yilga kelib bu raqam 260936 kishiga tushib qolgan. Salkam to‘qson ming nafar kishi qayoqqa ketgan? Demakki, “Kunjara yili” yo‘qotishlari dahshatli darajada katta bo‘lgan, ya’ni, har to‘rt kishining biri ocharchilik qurboniga aylangan. Oradan o‘n yil o‘tgach, fojia yana takrorlanadi: barcha oziq-ovqat mahsulotlari majburiy ravishda frontga olib ketilgan, 18 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan erkaklar frontga va frontorti ishlariga safarbar qilinganidan daladagi yumushlar asosan keksalar, yosh bolalar va xotin-qizlar yelkasiga tushgan davrda yurtda yana ocharchilik ro‘y beradi. Uyida sichqon izg‘ib yurgan xonadonlar a’zolari yana kunjara yeyishga majbur bo‘ladi...


Urush yillarida vohada aholi soni bo‘yicha ma’lumotlar deyarli saqlanmagan, saqlanganlari ham “maxfiylik” tamg‘asi ostiga olingan yoki soxtalashtirilgani uchun bu davrdagi “kunjara qurbonlari” soni qancha bo‘lganini aniq ayta olmaymiz. Ammo, ikki raqamni taqqoslash o‘sha davr yo‘qotishlarini ko‘z oldimizga keltiradi. 1940-yilda respublikamizda 6 million kishi yashagan. Oradan o‘n yil o‘tgach (to‘rt yili urush va olti yili tinchlik davri) aholi soni shu raqamlarda qolgan. 1943-1944-yillarda ro‘y bergan ocharchilikni urush bilan bog‘lash va hukumat tepasida o‘tirganlarni oqlash mumkindir. Ammo tinchlik zamonida, yana sovetlar “Barcha ishchi-dehqon to‘q va farovon yashaydigan sotsializmni qurishga jadal kirishgan” davr – 1933-1934-yillarda ro‘y bergan ocharchilikni hech nima bilan oqlab bo‘lmaydi. Bu, aslida, sovetlarning xususiy mulkka qarshi boshlagan kurashi – ming yillik yashash tamoyillari ildiziga bolta urishlari natijasi edi.

Xorazmning so‘nggi ming yillik tarixiga nazar tashlasak, vohada “ocharchilik” degan baloyi azim kamdan kam holatlarda kuzatilganiga guvoh bo‘lamiz. Bunga esa asosan urushlar sabab bo‘lgan. 1740-yilda ro‘y bergan Nodirshoh bosqini davrida xonlikda ocharchilik bo‘lgani haqida Abulg‘oziy Bahodurxon “Shajarayi turk”da, Ogahiy o‘z tarixiy asarlarida eslatib o‘tgan. Undayam shahar aholisi bu baloga duchor bo‘lgan, qishloqlarda taqchillik kuzatilgan, ammo ochlikdan hech kim vafot etmagan.

Nimaga? Insoniyat o‘troq hayot kechirishga, ovchilikdan dehqonchilik orqali ro‘zg‘orini boqishga o‘tgan zamonlardan boshlab ilkidagi yerlarga yil davomida qozoniga tushishi kerak birlamchi oziq-ovqat ekinlarini hisob-kitob asosida ekish, parvarishlash va qish-u bahorga asrash hadisini olgan. Qal’a-shaharlar paydo bo‘lishi esa o‘sha muvozanatni yana bir bor qayta ko‘rib chiqishni taqozo qilgan. Qal’a-shaharlarda yashovchi aholi – mulozimlar, hunarmandlar, savdogarlar soni osha borishi qishloqlardagi dehqonlardan o‘z ro‘zg‘orlari qozonidan ortiqcha oziq-ovqat ekinlari ekishni talab qilgan. Bu ikki tomonlama manfaatli tizim ediki, dehqon yetishtirgan bug‘doy va boshqa oziq-ovqatlarini bozorga solar, qo‘liga tushgan pulga ro‘zg‘or buyumlari, bola-chaqasiga kiyim va boshqa kerakli anjomlarni xarid qilardi. Ayrim yillari ob-havo dehqonchilik uchun qulay kelganida, bozorlar to‘lib-toshar, arzonchilik kuzatilardi. Suvsizlik yoki suv toshqinlari ro‘y bergan ayrim yillarda esa narx-navo shunga yarasha ko‘tarilib ketardi. Ammo, biroz taqchillik kuzatilsa-da, hech qachon ocharchilik ro‘y bermasdi. Bu asrlar davomida to‘plangan tajriba natijasi, xonlikda o‘ziga xos muvozanat nuqtasi yaratilganining mevasi edi.

Xiva xonligida don mahsulotlari: bug‘doy, oq jo‘xori va arpa katta maydonlarga ekilganini Abulg‘oziy Bahodurxon tarixiy asarida qiziq bir taqqoslash bilan ko‘rsatib ketadi. Tarixchi hukmdor yozishicha, “bug‘doyzorlar atrofini otliq o‘n kunda aylanib chiqishi mumkin edi”. Otda bir kunda yo‘l bosish masofasi qirq chaqirim ekanini hisobga olsak, ko‘z oldimizga aylanasi to‘rt yuz chaqirimlik bug‘doy dalalari keladi. Buni hozirgi o‘lchamlarga olsak, ming-ming gektarlik maydonlar degani.

Faqat bugina emas. Vohada oq jo‘xori ham ko‘p ekilgan. Uning unidan non, zog‘ora yopilgan, turli ovqatlar tayyorlangan, poyasi esa chorvaga to‘yimli yemish hisoblangan. Arpa asosan otlarga yemish uchun ekilgan. Bundan tashqari, qovoq, sholg‘om, sabzi, mosh, loviya kabi poliz va sabzavot ekinlari ham me’yorda ekilganki, aholi ularni yil davomida iste’mol qilgan. Daryo ortida yashayotgan qoraqalpoqlar voha bozorlariga arzon baholarda chorva mollarini keltirganidan, har bir oilaning, hech bo‘lmasa, haftada bir marta qozoni go‘sht ko‘rganini tasavvur qilish qiyin emas.



1873-yilda chor hukumati xonlikni istilo qilgach, ko‘p asrlik muvozonatga zaxa yetdi – aholining shakllangan hayotiy ustqurmalari barbod bo‘ldi. Keyinchalik tarix kitoblariga kiradigan, necha avlod miyasini yuvgan “zolim xonlar, insofsiz ma’murlar, zulmdan ezilgan och-u qashshoq xalq” kabi to‘qimalar hayotning asl haqiqatlarini yo‘qqa chiqardi. Yetti emas, yetmish ajdodi boshiga kelmagan ocharchilik, qahatchilik, yo‘qchilik yelkasiga tushgan avlodlar “o‘tmishda bundan battari bo‘lgan ekan, sovetlar yaratgan kunlarga shukr”, deb yashayverdilar.

Xonliklarda qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadigan ziroat vaziri lavozimi bo‘lgan. Bu amaldor zimmasiga xonlikdagi barcha maydonlarga ekiladigan ekinlar turini muvofiqlashtirish, urug‘ qadash muddatlari, suv taqsimotini bosh mirob bilan kelishish va, hatto, bozorlarda oziq-ovqat narxlari mo‘tadilligini nazorat qilish yuklatilgan. Bu holatni tuproq, harorat, yer osti suvlari balandpastligiga qarab ayrim hududlar ko‘proq poliz ekinlari yetishtirishga, boshqa joylarda esa sholi o‘stirishga ixtisoslashganida ham ko‘ramiz. Ming yillik tajriba o‘zini to‘la oqlay olgani oxir-oqibatda oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab va ehtiyoj mo‘tadilligini yaratgan va yashab kelgan.

Xonlik bosib olingach, siyosiy erkinlik bilan bir qatorda ijtimoiy ustqurmalar ham asta-sekin izdan chiqarilgan. Gapni cho‘zmay, tarix kitoblarida keltirilgan bir nechta qiyosiy raqamlarni ko‘rib chiqaylik: “Turkistonda “Amerika” paxtasini ekish 1884-yildan tez rivojlana boshladi”, “Toshkent tevaragida 1884-yilda atigi 300 desyatina yerga paxta ekilgan bo‘lsa, 1889-yilda 44 550 desyatina yerga paxta ekildi”, “1890-yilda Turkistonda jami 1 million 282 ming pud paxta yetishtirildi”, “1900-yili Xiva xonligi hududida 80 ming desyatina yerga paxta ekilgan bo‘lsa, 1915-yilda paxta maydonlari hajmi 146 ming desyatinaga yetdi”... Paxta yakkahokimligiga shu tariqa poydevor qo‘yildi va vaqt kelib, u o‘z asoratlarini ko‘rsata boshladi.

Rahmatli Ro‘zmat buvam bir gap aytgandi: “Momongni yarim qop bug‘doyga olganman. Qaynotamga “sut haqi”ga ikki botmon paxta beray, desam, “Paxtang qoringa yuq bo‘ladimi, bir hovuch bo‘lsa-da, bug‘doy keltir”, degan. Yurt notinch, hamma yoqda qahatchilik, ocharchilik sezilib qolgan davrda shu yarim qop bug‘doyni el oyog‘i tinchigach, yarim kechasi bo‘lg‘usi qaynotamnikiga eltib berganman. Kunduzi birov ko‘rib qolsa, bug‘doyni tortib olar, Xudo ko‘rsatmasin, o‘ldirib ham yuborardi”.

Ne baxtki, istilo boshiga tushgan va kuni kunjaraga qolgan bobolarning bugungi avlodlariga bu gaplar ertakka o‘xshab ko‘rinadi. Ishonadiganlardan ko‘ra, ishonmaydiganlar ko‘proq. Baxtimizga muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan qisqa fursatda paxta yakkahokimligiga barham berildi. O‘tgan davrda millionlab gektar maydonlar aholiga dehqonchilik qilishlari uchun ajratildi. Paxtachilik va g‘allachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari aholi ehtiyojlaridan ziyodroq hosil olyapti. Bu yoqda bog‘dorchilik, poliz-sabzavot maydonlari yil sayin kengayib bormoqda. Shundan bozorlarimiz to‘kin, narx-navo mo‘tadil... Endi kunjara faqat chorva mollari ozuqasiga aylangan.

Ro‘zimboy HASAN

ZAMONDOSH

IZDOSHLIK

Bu inson bilan uchrashganda, ismi xayolga kelganida, to‘g‘risi, ko‘ngilda bir oydinlik paydo bo‘ladi. Balki ToshDUda bir davrda o‘qiganimiz, ehtimol, tadqiqot mavzularimiz davri uyg‘unligidandir. Nima bo‘lganda ham, Halim Sayidning odamiyligi, ma’rifatparvar va haqqo‘yligini ziyo ahli yaxshi biladi.



U o‘tgan asrning 90-yillarida nomzodlik dissertatsiyasini Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodi bo‘yicha himoya qildi. Davrni, manbalarni yaxshi bilgani uchun davriy matbuotda ham jadidlar faoliyati, xususan, Behbudiy borasida jiddiy maqolalar bilan chiqdi. B.Qosimov, N.Karimov, B.Do‘stqorayev, S.Ahmedov kabi jadidshunoslar e’tirofini qozondi. Dissertatsiyasi alohida risola bo‘lib nashrdan chiqdi. O‘tgan yili Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi munosabati bilan “Behbudiy dahosi” kitobi bosildi. Kitob avvaldan negiz-asosi bor mavzu yangicha talqinlar bilan boyitilgan tarzda maydonga keldi.

Behbudiy hayoti va ijodi masalalari Halim Sayid xayolini salkam qirq yildan beri egallab yuradi, menimcha. U istiqlol yillarida Mahmudxo‘ja Behbudiy to‘g‘risida tadqiqotlar olib borgan pallalarda Behbudiy nashr etgan “Samarqand” gazetasi bilan “Oyina” jurnalining mazmun-mundarijasini har jihatdan puxta o‘rgandi. “Behbudiy dahosi” kitobidagi har ikki vaqtli matbuot nashriga tegishli “Samarqand” – jadidlar g‘oyasining targ‘ibotchisi” hamda “Jurnallarning eng birinchisi va yaxshisi...” deb nomlangan alohida ikki maqola shu izlanishlar hosilasidir.

Halim Sayidning jadidlar publitsistikasi, o‘zbek dramasining ibtidosi, jadid hikoyasi to‘g‘risida yozganlari ham o‘rinli. “XX asr boshlarida yosh adiblarni munosib tarbiyalab, ularning qo‘lidagi qalamni charxlash, adabiy asarlar yaratib, ular orqali o‘zlikni anglashga va oqibat xalqni ma’rifat vositasida hurriyatga chorlash jadidlarning ezgu orzusi edi”. Aynan shu missiya, ya’ni adiblar yetishtirish, ma’rifat tarqatish va hurriyatga erishmoq orzusining konseptual negizini Behbudiydan topamiz. To‘g‘risi, bunday fikrlarni yozish uchun, albatta, o‘sha murakkab davr adabiy, ijtimoiy, ilmiy manbalarini tekshirib, ularni fikran bir tizimga solmoq kerak. Halim Sayid kitobida jadidlikka doir juda ko‘p masala muhokama qilinadi. Behbudiy va uning tegrasidagi shaxsiyatlar faoliyatiga ham diqqat qaratiladi. Jadidlarning jiddiy hayotiy g‘oyayi a’moli bo‘lgan ozodlik, istiqlol tushunchalari, xususan, Turkiston muxtoriyati qismati uchun “Yashasun, Turkiston muxtoriyati!” nomda alohida sahifa ajratiladi.

Birinchi manbalarni, o‘zbek mumtoz yozuvida bosilgan vaqtli matbuotdagi maqolalarni, xabarlarni, adabiy asarlarni o‘qish, anglash va uqish – bu o‘z-o‘zidan bo‘ladigan ish emas. Arabiy imloda harf tanish bilan barobar sabr, qunt va eng, muhimi, tamiz lozim. Tamiz degani bilim, fahm-farosat va analizga to‘g‘ri keladi. Behbudiy yozganlarini o‘zbek mumtoz yozuvida bosilgan “Samarqand” bilan “Oyina”dan tashqari, “Tarjimon”, “TVG”, “Tujjor”, “Ulfat” bilan “Hurriyat”dan ham izlamoq lozim. Halim Sayid shunday izlanishdan erinmadi. O‘zidan oldin sarg‘aygan sahifalar changlarini yutib, qimmatli adabiy manbalarni tabdil qilgan olimlar xizmatini ham unutmadi. Bu ilmda adolat va xolislik tamoyili demakdir. Halim Sayid inson va olim sifatida aynan shu fazilati bilan ham yangi toifadagi yosh-u qari jadidshunoslar uchun namuna bo‘ladi, deb o‘ylayman.

Kitobning xulosa qismida jadidlardan ibrat olishning qiymati xususida shunday yoziladi: “Bugungi avlod oldida yangi vazifa turibdi – Vatanni dunyoning har jihatdan rivojlangan yetakchi davlatlari qatoriga olib chiqish! Ana shu maqsadga erishsakkina, ozodlik yo‘lida qurbon bo‘lgan bobolarning ruhlarini shod etgan bo‘lamiz”. Muallif haq.

Ayrim masalalar bo‘ladiki, uni o‘z mutaxassisi yozmaganidan odam afsuslanadi. Har ishning o‘z egasi bo‘ladi. Aslida, ish egasini va egasi ishini topsa – olam guliston. To‘g‘risi, “Turkiston dahosi” aynan ish egasini topganidan darak beradi. Ko‘p davralarda Mahmudxo‘ja Behbudiy mavzusi o‘rtaga chiqqudek bo‘lsa, birinchilardan bo‘lib Halim Sayid nomi, uning maqolalari, xizmatlari xayolimga keladi. Bir necha o‘n yillar davomida ayni shaxsiyat tarixi bilan shug‘ullangan mutaxassis har jihatdan Mahmudxo‘ja Behbudiy fenomeni xususida kitob ta’lif etishga haqlidir. Halim Sayidning davriy matbuotda bu mavzuda bir qancha jiddiy maqolalar e’lon qilgani, hatto bahs-munozaralar ko‘tarilgan mahali bilimdon mutaxassis sifatida aralashib, muhim fikrlar aytganini ham bilaman.

Halim Sayid zamonaviy jurnalistika muammolarini teran anglaydi, tushunadi, zaruratga ko‘ra hal qilish yo‘llarini aytadi. Universitet muallimi sifatida talabalariga milliy matbuot tarixini o‘rgatadi, dunyodagi ommaviy axborot vositalariga tavsiflar beradi. Xususan, “Talabalarni qaysi nazariya asosida o‘qityapmiz?” maqolasida jurnalistika va uni o‘qitishga doir nazariy tushunchalarni bayon qiladi. Darhaqiqat, Halim Sayid bunday ta’limiy masalalar bilan ham izchil shug‘ullandi. Yirik hajmli doktorlik dissertatsiyasiga rasmiy taqrizchi bo‘lganimda, uning masalaga qanchalar jiddiy yondashganini sezdim, ayni paytda, o‘zim ham bu sohaning xususiyatlarini qaysidir ma’noda o‘rgandim, tasavvur qildim.

Tadqiqot muallifi dunyoda mavjud matbuot nazariyasiga tegishli tizimli qarashlarni o‘z ilmiy ishi uchun asos qilib olgan edi. Bu o‘rinda uning “Matbuotning to‘rt nazariyasi” kitobiga murojaatlarini nazarda tutmoqdaman. “Mualliflar matbuot nazariyasini ***avtoritar, libertarian, ijtimoiy mas’uliyat*** va ***sovet totalitar*** nazariyasiga bo‘ladilar”. Bu nazariyalardan har biriga ta’rif va tavsif beriladi tadqiqotda. Avtoritar nazariyani talqin qilar ekan, unga “Turkiston viloyatining gazeti”ni misol qilib keltiradi olim va “Turkistonda matbuot 1870-yildan 1917-yilgacha chor Rossiyasining bir qismi sifatida avtoritar nazariya talablari asosida faoliyat ko‘rsatdi”, deb yozadi. 1917-yilgi o‘zgarishlardan keyin ta’sis etilgan “Hurriyat”, “Najot”, “Ulug‘ Turkiston” kabi gazetalarda “libertarian nazariya elementlari” borligini asoslaydi. Boshqa nazariyalar ham shu zaylda o‘z misollari bilan atroflicha sharhlab beriladi. Muhimi, shu tushunchalar dissertatsiyaning butun mazmun-mohiyati va borlig‘i uchun kompleks asos bo‘lgani sezilib turadi.

O‘zbek matbuotining jadid davri eng muhim, eng qiziq va milliy manfaatlar eng ko‘p ko‘zlangan tarix parchasi sanaladi. Halim Sayid “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat”, “Tujjor”, “Turon”, “Samarqand”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” kabi ko‘plab nashrlardagi axboriy janrlarni, ruknlarni taqqoslaydi, xulosalar beradi. Tadqiqotdagi statistik ma’lumotlar dissertatsiyaning fazilatlari pallasiga yuk bosadi va muayyan qiymat kasb etadi: “1938-yilga kelib senzura organlari partiya tasarrufiga o‘tadi va butun ittifoqdagi jami 8850 ta gazeta, 1762 jurnal, 74 radiostansiya, 1176 matbaa korxonasi, 70 000 kutubxonalar nazoratga olinadi. “Правда”, “Известия” kabi markaziy gazetalar boshqa nashrlarga siyosiy yo‘l ko‘rsatadigan mayoq vazifasini o‘taydi. O‘zbekistonda esa bu vazifa “Qizil O‘zbekiston” gazetasi tahririyati zimmasiga yuklanadi”. Istiqlol arafasidagi davr matbuotida oshkoralik, qayta qurish va demokratiya tushunchalari ko‘p takrorlandi. Ayni zamon ichida yashagan avlod vakili sifatida olim bu davr matbuoti tabiatiga ham yetarlicha nazariy baho beradi. Muallif matbuotga, jurnalistikaga, axborotga doir tadqiqotida ma’lum bir tizimga asoslanish bilan bir qatorda, publisistik hodisalardan ham soha uchun individual qonuniyatlar topishga harakat qiladi. Soha olimi uchun bu fazilat, albatta.

Bosma nashrlarning har biri o‘z axboriy siyosatiga ega. Bu siyosat o‘zaro farqli va nisbatan o‘xshash bo‘lishi ham mumkin. Ammo axborot siyosatining sohalarga ko‘ra tabiati qanday, eng muhim tamoyillari nimalardan iborat, degan savolga muallif o‘zi ko‘p yillar bosh muharrir bo‘lgan “Ma’rifat” gazetasi misolida “biror bir g‘oyaviy dasturga, siyosiy qarash va mavzu yo‘nalishiga” asoslangan bo‘lishi lozim, degan tarzda o‘rinli javob beradi. Jurnalistlarning ixtisoslashuvi – muhim gap. Hamma sohani qamrab olgan qomusiy jurnalistlar juda kamyob, topilmaydi ham. Zero, ma’lum bir yo‘nalishga ixtisoslashish o‘zining yaxshi samaralarini berishi, tanlangan mavzu chuqur, qiziqarli va atroflicha yoritilishi mumkin. Ixtisoslashuv uchun bilim, dunyoqarash va tajriba asosiy o‘rinda turadi.

“Ma’rifat” gazetasiga rahbarlik qilgan yillarida Halim Sayidning tashkilotchiligi, tashabbuskorligi, fidoyiligi namoyon bo‘ldi. Ko‘plab yoshlarni ergashtirdi, oliy o‘quv yurtlari talabalarining rasmiy o‘quv dasturlari asosida olgan bilimlari bir tomon bo‘lsa, gazeta qoshidagi “Ma’rifat maktabi” saboqlari alohida qiymat kasb etdi. Maktabning asosiy vazifasi talaba-jurnalistlarni ta’lim-tarbiya, ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishga ixtisoslashtirish, publitsistikaning turli janrlarida yozish mahoratini oshirishdan iborat edi. Bu amaliyot maktabi tufayli o‘nlab yosh jurnalistlar sohaga ixtisoslashgan holda, o‘z ish faoliyatini o‘nglab olishdi. Shu bois, ta’kidlab aytmoqchimanki, “Ma’rifat” gazetasi tahririyatining shu davrlardagi faoliyati, yosh jurnalistlar, muxbirlar tarbiyasi masalasi alohida tadqiqotga munosib mavzu sanaladi.

Halimning “Ma’rifat”da ishlagan yillariga oid o‘zi yozgan xotira-maqolasini o‘qidim. Tashqaridan qaragan o‘quvchi, gazeta o‘z-o‘zidan chiqaveradi, deb o‘ylashi mumkin. Ichki muhit, intizom, manba izlash va topish mashaqqatlari, tahririyatga kelgan maqola va uning mazmuni, sarlavhasi, har bir so‘z ustidagi bahslarni tashqaridagilar tasavvur qilishi qiyin. Holbuki, gazetada yorug‘lik yuzini ko‘rgan jiddiy shov-shuvli maqolalarning o‘z qismati va tarixi bor. Nazarimda, Halim Sayid “Ma’rifat”da bosilgan o‘nlab shunday maqolalar haqida soatlab so‘zlaydiganga o‘xshaydi. Darvoqe, bugun auditoriyaga kirib, bo‘lg‘usi jurnalistlarga ta’lim berayotgan professor Halim Sayidga shu jihatdan havas qilsa arziydi. Misollarni boshqalardan izlashiga hojat yo‘q. O‘z boshidan kechirgan voqealarni taqdim etadi va zaruriy xulosalar chiqaradi.

Jamiyatni, jamoani, talabalar auditoriyasini boshqarish oson ish emas. Nazarimda, odillik, xolislik, o‘zini katta olmaslik kabi insoniy fazilatlar Halim Sayidni ehtiromga munosib maqomga ko‘tardi. Boshqalar uchun ibrat bo‘lish – saodat. Men bilgan Halim Sayid odil, xolis, haqgo‘y inson. Ustozlariga hurmati baland, shogirdlariga mehribon ustoz. Bunday fazilat va sifatlar inson umriga mazmun bag‘ishlashi aniq.

So‘z zahmatkashi bo‘lgan Halim Sayidning o‘zbek ma’naviyati, ma’rifati, milliy jurnalistika ravnaqi uchun qilgan xizmatlari e’tirofga munosib. Uning o‘nlab, yuzlab yosh jurnalistlarga ta’lim-tarbiya berib, kerakli, yaroqli va fidoyi mutaxassislarning jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga yordamlashayotgani – chin haqiqat.

Bahodir KARIM,
filologiya fanlari doktori,
professor



> **Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg‘ular qanchalik chuqur joy olgan bo‘lsa, mahdudlik o‘rniga milliy g‘oyalar vujudga keladi.**
>
> **Abdulla AVLONIY**

BONG

QAROVSIZ QAL’A



Yurtimizda keyingi yillarda ichki turizmni rivojlantirish, tarixiy obidalarni asrab-avaylash va qayta tiklash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz kabi qadimiy shaharlarimizdagi tarixiy yodgorliklar nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyo sayyohlarining e’tiborini tortib kelmoqda. Bu ishlar xalqimizning boy madaniy merosini asrash va uni kelajak avlodlarga butun holda yetkazish yo‘lidagi muhim qadamlardir.

Biroq yurtimizning chekka hududlarida e’tibordan chetda qolayotgan ayrim tarixiy obidalar ham yo‘q emas. Vaqt, tabiat va qarovsizlik ta’sirida ularning devorlari yemirilib, asrlar davomida saqlanib kelgan tarixiy izlar asta-sekin yo‘qolib bormoqda. Shunday tarixiy maskanlardan biri – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qonliko‘l tumanidagi Janga-qal’a qo‘rg‘onidir. Bugun bu noyob tarixiy yodgorlik yo‘qolib ketish xavfi ostida turibdi.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Janga-qal’a dastlab savdo yo‘lida harakatlangan karvonlar uchun qurilgan. Keyinchalik mahalliy aholini turli bosqinlardan himoya qilgan. Shu bois, qo‘rg‘on nafaqat me’moriy yodgorlik, balki xalqimiz jasorati, matonati va ozodlik uchun kurashi bilan bog‘liq tarixiy maskan ham hisoblanadi.


Afsuski, bugungi kunda qo‘rg‘on devorlari yil sayin yemirilib bormoqda. Agar bu jarayonning oldi olinmasa, yaqin kelajakda ushbu noyob yodgorlikdan asar ham qolmasligi mumkin. Bu esa mamlakatimiz tarixiy merosi uchun katta yo‘qotish bo‘ladi.

Janga-qal’ani muhofazaga olish, arxeologik va ilmiy jihatdan o‘rganish, zarur qismlarini mustahkamlash hamda uni turizm yo‘nalishlariga kiritish hududning turizm salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Biz tarixiy merosni faqat mashhur shaharlardagi obidalar orqali emas, balki yurtimizning chekka hududlarida saqlanib qolgan yodgorliklar orqali ham asrashimiz lozim. Zero, har bir tarixiy obida xalqimizning o‘tmishi, milliy o‘zligi va ma’naviy boyligining ajralmas qismi hisoblanadi.

Umid qilamizki, tegishli vazirlik va idoralar, mahalliy hokimlik hamda Madaniy meros agentligi Janga-qal’a qo‘rg‘oni taqdiriga ham e’tibor qaratadi. Bu tarixiy obidani muhofaza qilish va kelajak avlodlarga butun holda yetkazish yo‘lida amaliy choralar ko‘riladi, degan umiddamiz.

Abatbay KRAMOV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

QADRDON KITOBLAR



Xalqimizning jasoratli shoiri Shavkat Rahmon bir suhbatida “She’riyatimiz teran, oqimlari kuchli she’riyatdir”, deya ta’rif bergan. Ayni shoirning o‘zi mana shu “teran, oqimlari kuchli” she’riyatda ulkan po‘rtanalar sodir eta olgani ahamiyatlidir. Chinakam muxlislar shoirning “Avtobusdagi o‘ylar”, “Asotirlar kitobi”, “Gullayotgan tosh”, “Ovozim”, “Titroq sezdingmi hech”, “Yonayotganlar”, “Aravon ko‘rinishlari”, “Xirgoyi”, “Jez otliq”, “Kutilmagan siyliqlar”, “Iqror” singari o‘nlab she’rlarini yoddan biladi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

“BIR O‘JAR SHOIR”

“Ko‘ngil tashna... Qondiray desam, Qaynab turar g‘amlar bulog‘i”, deb yozadi shoir bir she’rida. Shoirning ijodiy shakllanish jarayoni shunday muhitda kechdi. “Qop-qora devorga suyanib, yop-yorug‘ xayollar surgan” shoir derazalarni kattaroq ochishni, kirlanib ketgan dunyoni biroz shamollatishni istadi. “So‘zlarning saralarini” – har biri yuz so‘zning o‘rnini bosadigan, har biri yuz umrga yetajak “Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash, Ozodlik” degan muqaddas so‘zlarni saylab, o‘z ijodida baralla kuyladi. Otashnafas shoirning O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida “Adabiyot” nashriyotida chop etilgan “Tanlangan asarlar”i xuddi shunday qaynoq ijod namunalaridan tarkib topgan.

Salmoqli kitobga shoirning o‘z she’rlari bilan birga, u tarjima qilgan asarlar ham bir muqova ostida berilgani yaxshi ish, zero, tarjima, ayniqsa, she’riy tarjima ham ijoddir. Xususan, Federiko Garsia Lorka she’rlarining san’atkorona tarjimalarini alohida e’tirof etmoq kerak. Tarjimon Lorkani ona tilimizga o‘girish uchun atay ispan tilini o‘rgangan. Ehtimol, shu boisdir, betakror ispan shoirining “Tuni bilan vodiyda esar / tumanlardan to‘qilgan ertak”, “Ich ko‘hna qo‘shig‘imiz / suvlaridan so‘nggi bor”, “Cho‘llab og‘ir noligan / og‘ochlarning shamollar / chavaqlagan ko‘zlaridan / tomar jonsiz yaproqlar”, “Suzar qayiq-fikrlar / qoraygan qorachug‘ing / qora bosgan suvida / chayqaladi chorasiz”, “Qamishzorni kiyvolgan / irmoq bo‘g‘iq g‘o‘ldirar”, “Tong yorishgan chog‘ida / qattiq jala quyajak / qurib qolgan shoxlardan / to‘kiladi uyalar”, “O‘, gitara! / Besh xanjar / qonga bo‘yagan yurak”, “Bir umr og‘riydi og‘riq sezganlar, / o‘limdan qo‘rqqanlar o‘lar umrbod”, “Yig‘laysan ot ko‘zining qirg‘og‘ida jimgina”, “Qizlar saharlari / yashil ipakdan / chiroyli kashtalar / tikar yurakka” kabi o‘nlab, yuzlab satrlari xotiramizga muhrlanib qoladi. Foram, shabiy, yobon, sad singari o‘nlab betakror so‘zlar, tutilmagan qofiyalar bu tarjimalar uchun xosdir. Shuningdek, Xuan Ramon Ximenes, Rafael Alberti, Yon Karayon, Vasile Nikolesku, Marin Soresku, Radovan Pavlovski, Nabi Xazriy, Jobir Navro‘z, O‘ljas Sulaymon, Nikolay Gribachyov, To‘qtag‘ul Sotilg‘an o‘g‘li kabi mashhur va hali ko‘pchiligimiz bilmagan shoirlar ijodidan tarjimalar sizni befarq qoldirmaydi.

She’rlarida o‘zini haqli ravishda “bir o‘jar shoir” sifatida ta’riflagan atoqli ijodkorning har bir yangi kitobi – so‘z san’ati ixlosmandlari bilan har gal yangi diydorlashuvi quvonchlidir.

Nigina ISKANDAROVA

O‘Y

“G‘animatdir bu kunlar, dadajon...”

Gohida o‘yga tolaman, avvallari kunlar ham, tunlar ham bugungidek shoshqin emasdi, uzun va barakali edi. Ko‘cha changitib qora kechgacha to‘p tepgan, uy yumushlarini bitirib, kitob varaqlagan, yozgi ta’tilda buvilarimiz uyida tushlik payti uxlatishlaridan qochib, tezroq peshin o‘tishini kutgan beg‘ubor damlar... Eng muhimi, mahallada hamma bir-birini tanir, har bir bola butun jamoaning arzandasi sanalib, keksalarning birgina dakkisi yoki duosi bilan tarbiya topardi. Odamlar bir-birining ko‘ziga qarab gaplashar, mehr va oqibat og‘zaki emas, amaliy hayot tarzi edi. Endi-chi, cheksiz ehtiyojlar va raqamli texnologiyalar asrida vaziyat qanday?

Biz maishiy tashvishlar, to‘kinlik va moddiyat poygasiga shu qadar sho‘ng‘idikki, eng qimmatli ne’mat – vaqt va jonli muloqotni boy berib qo‘ydik. Ilgari ertalab bir burda non va shirin choy bilan kun bo‘yi yayrab yurgan bolalar o‘rnini bugun noz-u ne’mat to‘la dasturxon ustida



“uni yemayman, buni kiymayman”, deb xarxasha qilayotgan bolalar voyaga yetmoqda. Bir paytlar ukasi yoki singlisini opichlab, ro‘zg‘or yumushlarida ota-onasiga suyanch bo‘lgan avlod o‘rnida bugun hatto o‘z poyabzalining ipini bog‘lashga erinadigan, mustaqil hayotga tayyor bo‘lmagan avlod bilan yuzma-yuz turibmiz.

Bugungi “Z” va “Alfa” avlodlari raqamli muhit ichida tug‘ildi. Fojia shundaki, biz ularni an’anaviy ma’naviy borliqdan uzib, virtual qarmoqlarga o‘z qo‘limiz bilan topshirib qo‘ymoqdamiz. Bugun oilalarda xavfli bir “emotsional vakuum”, ya’ni ma’naviy bo‘shliq paydo bo‘ldi. Agar oiladagi bu bo‘shliqni ota-onaning mehri to‘ldirmas ekan, uni begona virtual dunyo o‘z domiga tortadi. Bu muammo bugun to‘satdan paydo bo‘lib qolgani yo‘q. Millat qayg‘usi bilan yashagan ma’rifatparvar jadid bobolarimiz bundan bir asr muqaddam tarbiyani hayot-mamot masalasi darajasiga ko‘targan edi. Ulug‘ mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudiy: “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur. Buning poydevori esa go‘daklikdan beriladigan tarbiya va ilmdir”, deb uqtirgan bo‘lsa, Abdurauf Fitrat: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga, oilaviy tarbiyasining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganiga bog‘liqdir”, deya oila va ota-onaning shaxsiy mas’uliyatini davlat poydevori sifatida belgilagan.

Mazkur tarixiy haqiqat Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida davlat siyosati darajasidagi asosiy ustunga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu borada aniq va dolzarb xulosani ilgari suradi: “Agar bolalarimizni maktabgacha davrda to‘g‘ri tarbiyalab, ularning ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirmasak, keyin kech bo‘ladi. Yosh avlod tarbiyasi – bu, davlat ahamiyatiga molik, kelajakni belgilaydigan eng muhim vazifadir. Bola dunyoqarashining shakllanishida oilaning, ota-onaning o‘rnini hech narsa bosa olmaydi. Bola uchun eng katta boylik – unga berilgan chinakam tarbiya, mehr va e’tibordir”.

Ammo bu ulug‘ haqiqatlarni kundalik hayotimizda qanchalik amalga oshiryapmiz? Kun bo‘yi bog‘cha yoki maktabda ota-onasining qadamini intizor kutgan jajji qalblar oqshomda uyga horib kelgan ota-onasidan iliq nigoh va mehr kutadi. Kattalar esa charchoqni bahona qilib, mehr berish o‘rniga qo‘lidagi sensorli armug‘oniga termilib o‘tirishni afzal ko‘radi.

Kuni kecha ishdan charchab qaytganimda, qizalog‘im ko‘zlari quvonchdan porlab oldimga yugurib keldi: “Oyijon, oyijon, “Bek va Lola”ning yangi qismi chiqibdi, rosa zo‘r ekan, qo‘yib beraymi?” Men esa horg‘inlik bilan: “Hozir uy ishlarini tugatay, keyin ko‘ramiz, endi ishdan keldim-ku”, dedim. Shu lahzada uning ma’sum ko‘zlaridagi uchqun darrov so‘nib, nigohida bir kemtiklik, sokin bir siniqlik yaltirab ketdi. Bu nigoh yuragimni tilib yubordi. Hamma narsani yig‘ishtirib, kompyuter qarshisiga o‘tirdim.

Multfilmning “Bolalik” deb nomlangan qismi bugungi aksariyat ota-onalar uchun shafqatsiz bir haqiqat ko‘zgusi ekan. Erkalik qilgisi, otasi bilan turli o‘yin o‘ynagisi kelayotgan jajji qahramonlarning dardi, aslida, bugungi jamiyatimizning katta dardi. Ona ro‘zg‘or tashvishlari girdobida, ota esa telefon va ishdan bosh ko‘tara olmayotgan manzarada yangragan mana bu misralar tosh qalbni ham larzaga soladi:

“Ishdan charchab kelsangiz,
kulib kutib olamiz,
Bag‘ringizga otilib,
dadajon, achom-achom qilamiz.
Futbol o‘ynaylik birga,
chalg‘imaymiz telefonga,
G‘animatdir bu kunlar, dadajon,
Yodda qolsin bir umrga!
Dada, dada, dada, dadajon...
Keling, biz bilan o‘ynab,
bolalikka qayting bir on,
Baxtliroq o‘tadi
siz bilan vaqtimiz birga,
Omon bo‘ling har qachon,
dada, dada, dadajon!”

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan milliy animatsiyamizda aynan mana shunday chuqur psixologik, oilaviy qadriyatlarni himoya qiluvchi milliy kontent yaratilayotgani ulkan ahamiyatga ega. Bu shunchaki multfilm emas, balki farzand tarbiyasidagi bo‘shliqni ko‘rsatib beruvchi milliy ogohlik bongidir. Bolaga hashamatli mashina, brend kiyim yoki qimmatbaho buyum emas, ota-onaning mehrli ovozi, samimiy quchog‘i va birga o‘ynalgan jonli lahzalar kerak.

Ertaklarga ishonib yashagan kechalarimizni eslang. Hamid Olimjon “Oygul bilan Baxtiyor” dostoni muqaddimasida bejiz yozmagan:

“Bolalik kunlarimda,
Uyqusiz tunlarimda,
Ko‘p ertak eshitgandim,
So‘ylab berardi buvim.
Esimda o‘sha damlar,
O‘zi uchar gilamlar...
Buvimning har qissasi,
Har bir qilgan hissasi
Fikrimni tortar edi,
Havasim ortar edi.
Tinglar edim betinim
Uzun tunlar yotib jim...”

Qarang, bu she’rda nafaqat sog‘inch, balki katta pedagogika yotibdi! Bolani ertak, suhbat va jonli so‘z tarbiyalaydi. Biz bola paytimizda bolalikning qadriga yetmadik, ammo bugun ota-ona bo‘lib farzandimizning eng beg‘ubor damlarini virtual dunyo girdobiga tashlab qo‘yishga qanday haqqimiz bor? Bobo-buvilarimizning bizga aytgan ertaklari, chekkan bedor tunlari qalbimizga mehrdan mustahkam qal’a qurib bergan edi. Nahotki, bu ma’naviy zanjir aynan bizning avlodga kelganda uzilsa? “Bek va Lola” qahramonlari kattalarga bir buyuk qonuniyatni eslatadi: “Siz ham bola bo‘lgansiz, bobo-buvilarimiz bag‘rida baxtli edingiz... Biz ham sizdek bo‘lib ulg‘ayamiz”.

Inson ehtiyojlari cheksiz, moddiy boylikni qayta topish mumkin, ammo boy berilgan bolalikning birgina lahzasini jahonning barcha xazinalariga ham sotib olib bo‘lmaydi. Abdulla Avloniy aytgan “hayot-mamot masalasi” mana shu yerdan boshlanadi. Bolalikni boy berish – bu millatning ertasini boy berish, demakdir. Ulgurib qolaylik, chunki vaqt oqmoqda, bolalik esa g‘animatdir!

Nigora HUSANOVA,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi

AJAB ZAMON



Yaqinda xorijlik oshnalarni kutib oldim. Uchoq tungi soat uchda qo‘ndi. Ertalab sakkizda “Afrosiyob”da Buxoroga ketishlari kerak. O‘lguday charchashgan, ramaqijon ahvolda. O‘zbekona taomilga ko‘ra, qo‘noqlar o‘ziga kelsin deb palovxona sari boshladim. Uch xil osh chaqirdim. Non-choy, achchiq-chuchuk degandek... Qizig‘i keyin boshlandi. Mehmonlar piyolaning chetiga ikki marta lab tekkizib, ajablanishdi:

– I-ya, qardosh, choyga shakar solinganmi?

– Ha-da! Busiz limuchoy limuchoy bo‘larmidi?

NON VA OSH SHAHRI

Oshdan cho‘qiy turib, atrofga alanglashdi. Soat tonggi to‘rtga qarab ketyapti. Ammo yemakxona kunduzgidek gavjum, bittayam bo‘sh joy yo‘q. Laganbardor yigitlar yog‘i chak-chak tomib, go‘sht-u paylari hil-hil pishib ketgan issiqqina oshni g‘iz-g‘iz tashib turibdi.

– Bular ham bizga o‘xshab musofirmi? – so‘radi qo‘noqlardan biri oshxo‘rlarga ishora qilib.

– Yo‘q, deyarli hammasi o‘zimizni polvonlar.

– Uylari shu yaqin atrofda bo‘lsa kerak, a? Nega ettamattan oshxo‘rlik? Ko‘chada ham odam ko‘p. Bu yerdan chiqib uylariga borib uxlashadimi yo to‘ppa-to‘g‘ri ishgami?

– Qaydam… Hamma har xil.

Mehmonlar bosh chayqab: “Toshkent juda qiziq shahar ekan”, deb qo‘ydi.

To‘g‘ri, juda g‘aroyib shahar. Tunda ham hayot qaynaydi. Xudoga shukur, to‘qchilik. Maqtanadigan jihatlari ko‘p. Masalan, bu yerda odamlar avval semirish, keyin esa ozish uchun falon pul sarflaydi. Choy turganda “kola” ichadi, mosh o‘rniga osh yeydi. Bozorda bir bog‘lam ko‘katning narxiga talashadiyu, lekin fastfud pulini indamay uzatadi. O‘z uyida tekingina, tinchgina to‘yib uxlamaydi, ammo qimmat tungi barlarda “dam” oladi. Oyiga uch yuz ming so‘mlik taksida yurishmaydi, lekin ko‘chada tezlikni oshirib, uch million so‘m jarima to‘laydi. Yaqinlari bilan dardlashmaydi, ammo psixologga ko‘nglini yorish uchun pul beradi. Yigirma ming so‘mlik kitobni qimmat deydi, biroq ming dollarlik telefonni muddatli to‘lovga sotib oladi.

Uyidan fitnes-zalgacha bor-yo‘g‘i ikki chaqirim yo‘l. Piyoda yursa o‘pkasi ochiladi, toza havoda tan yayrab, ko‘zlar olislarga tikilishi mumkin. Ammo mashinada boradi. Zal atrofidan avtoturargoh topolmay, asabiylashadi. Piyoda yurish tekin bo‘lgan shaharda, yugurish yo‘lakchasining bir soati uchun pul to‘laydigan donishmandlar-ey!

Tungi soat ikkida bir tog‘ora qozonkabob va ikkita patirni urvolgach, ofitsiantga qarab: “Ukam, qani endi bir choynak achchiq ko‘k choydan bo‘lsin-chi, yog‘larini haydaydi-da”, deyishadi.

Dam olish kuni Chorvoqqa chiqishadi. Avval falon million so‘mga baland devorlari orasidan xushmanzara tog‘lar ko‘rinmaydigan dacha gaplashiladi. Och qoringa shashlikni yeyishdan nariga o‘tilmaydi. Na tabiat nafasi, na soy suvini ko‘radi ko‘zlar. Keyin ulfatlar tonggacha divandan turmasdan “PlayStation” o‘ynaydi, nari borsa bilyard yoki ping-pong bo‘ladi. Ertasi kuni peshingacha uyquni urishadi. Bosh og‘rigan, nonushta vaqti o‘tib ketgan, ko‘zlar qizargan. Yakshanba oqshomida shaharga qaytishdagi bir necha soatlik tirbandlik esa dam olishning “churra”siga tepadi. Keyin bu “hordiq” asoratlarini davolash, sog‘lig‘ini tiklash va qon bosimini tushirish uchun yana pul sarflashadi.

Ha, Toshkent shunaqa qiziq shahar. Qizig‘i, ana shu tus boshqa shahr-u kentlarga ham tojdor kovid kabi enlab boryapti. Oxiri baxayr bo‘lg‘ay!

Hali zamon “Afrosiyob”da Buxoroga ketadigan mehmonlarim limuchoyning totiga hayron bo‘lib, saharmardonda olag‘ovur ko‘targan qardoshlarini tomosha qilib o‘tirishipti. Men esa betoqatman. Bir soatdan keyin jo‘ramni ehson oshiga yetib olishim kerak.

Shahriyor SHAVKAT

TILLA SANDIQ



“BIR CHORAK ET”

Yaqin-yaqinlargacha xalq tilida, badiiy adabiyotda “To‘rt qadoq go‘sht”, “bir chirpit asal”, “o‘n tanob yer” kabi jumlalar ishlatib kelinardi. Hozir esa bular nimani anglatishini deyarli unutib yubordik.

Qirq yilcha burun “bir ashmushka choy”, “to‘rt yumaloq choy” kabi so‘zlar savdoda, turmushda ko‘p ishlatilardi. “Ashmushka” deb eng kichik choy qadog‘i – ellik grammlik, o‘zi kub shaklida bo‘lsa ham, xalq “bir yumaloq” deydigan choy qutisiga aytilardi: “Ikki ashmushka choy bering”, “Qizim, choy tugabdi, do‘kondan bir yumaloq choy olib kel”. Hozir eng kichik choy qadog‘i – paketchali choy bo‘lib, bir-ikki gramm atrofida chiqadi. “Ashmushka” degani “osmushka” – “vosmushka”ning buzib aytilishi bo‘lib, “sakkizdan biri” degan ma’noni bildiradi. Ellik gramm sakkizga ko‘paytirilsa, 400 gramm og‘irlik birligi kelib chiqadi. Xuddi shuningdek, “chirpit” degan sig‘im o‘lchovi “chetvert” – “to‘rtdan biri” degani. Sig‘im o‘lchovi litrda o‘lchansa, demak, bu “chorakta”, ya’ni, 250 millilitrni bildiradi. Buni yana “chekushka” ham deyishgan. Ergash Karimovning qahramoni “Uchrashuv” filmida: “Shuning o‘rniga otang bir chirpit musallas bervormaydimi?!” deya kuyingan joyi bor.

Og‘irlik, uzunlik va sig‘im o‘lchovlari – turmushda juda ko‘p qo‘llanadigan o‘lchovlar. Ular turli joylarda va zamonlarda turlichadir. G‘arbda kilogramm yoki metr emas, yard, fut, milya, dyum, funt, gallon kabi o‘lchov birliklari borki, xalqaro metrga asoslangan o‘lchov birliklari qo‘llanadigan joydan borib qolganlar nima-qanchaligini bilolmay qiynaladi.

Bu farq tarixiy va bugungi atamalar orasida ham ko‘zga tashlanadi. Shoir Muqimiyning “Tanobchilar” she’ri qahramonlari bo‘lgan Xo‘ja va Hakimjonning tanobchilik kasbi ham ko‘pchilikka notanish. Tanob o‘tmishda yer o‘lchovi, xuddi sotix kabi yer sathi o‘lchami bo‘lgan. Tanob cho‘pining bir qadami shartli ravishda 2,5 metrga teng deyilsa, ayrim firibgar tanobchilar cho‘pning orasini xohlasa uzaytirib, xohlasa qisqartirish orqali qo‘lga kirgan aqchalar evaziga choyxonada osh yeyishgan:

Osh yesalar o‘rtada sarson ilik,
Xo‘ja chiroq yog‘iyu Hakimjon – pilik!

Uzunlikni o‘lchashda gaz, arshin, qarich degan o‘lchovlar ishlatilgan. Gazcho‘pda o‘lchangani uchun mato gazlama deya atalgan. Eski arshin yoki gaz bir metr emas, sakson santimetrlar atrofida bo‘lgan.

Et-go‘sht bilan bog‘liq o‘lchov – qadoqni olib ko‘raylik. Qadimda shahar xalqi sovutkichlar bo‘lmagani yoki cho‘ntak ko‘tarmagani uchun go‘shtni kilolab emas, qadoqlab xarid qilgan. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Homid yonidan pul chiqarib: “Jannat opa, qassobdan bir chorak et keltirsangiz”, deydiyu qaysi o‘lchovdaligini aytmaydi. Chunki go‘sht xarid qilish o‘lchamiga o‘rganib ketishgani uchun qanchaligi so‘ralmaydi. Bir chorak degani hozirgi yarim kiloni anglatgan.

Qassobdan et sotib olish kundalik turmush masalasi bo‘lib qolmay, gap-so‘zlar, hazil-huzullarga ham maza bergan. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani ham aynan go‘sht xarid qilish manzarasi bilan boshlanadi: “Solih maxdum bu kun odatdagidan tashqari yeshilib ketdi, masjiddan chiqib to‘g‘ri qassobning oldig‘a bordi, bir tangalik go‘sht, sakkiz pullik piyoz olib hovlisiga keldi...” Qodiriy yangi romaniga doxil materiallarni yig‘ib, uni yozishga hozirlik ko‘rgan payti gapni nimadan boshlashni bilmay, unday ham, bunday ham boshlab ko‘rib, keyin o‘ziga yoqmay, yangidan kirishar ekan. Biror haftalardan keyin tushiga Solih maxdum kirganmishda, qo‘lida qassobdan sotib olgan go‘shtni ko‘rsatarmish... Ha, yesang tishingga kiradi, yemasang tushingga, deganlari shu-da.

Olloyor BEGALIYEV

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 157
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 591
Lotin yozuvida – 11 566
Media kuzatuvchilar – 90 284
Buyurtma: G – 1140
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy

Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (93) 636-72-32
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 23:00

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI